 Interpretatsiya qilinadigan til.

 Kengayishga moyil til. Agar dasturni biror joyini tezroq ishlashini xoxlasak shu qismni C yoki C++ dasturlash tillarida yozib keyin shu qismni python kodi orqali ishga tushirsa(chaqirsa) bo'ladi.

 Juda ham ko'p xilma-xil kutubxonalarga ega.

 xml/html fayllar bilan ishlash

 http so`rovlari bilan ishlash

 GUI(grafik interfeys)

 Web ssenariy tuzish

 FTP bilan ishlash

 Rasmli audio video fayllar bilan ishla sh

 Robot texnikada

 Matematik va ilmiy hisoblashlarni programmalash

Pythonni katta proyektlarda ishlatish mumkin.Chunki, uni chegarasi yo`q, imkoniyati yuqor.i Shuningdek, u sodda va universalligi bilan programmalash tillari orasida eng yaxshisidir.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

## 2-mavzu: Identifikatorlar, literallar, o’zgaruvchilar va berilganlar turlari.

**Mavzu rejasi:**

1.O'zgaruvchilarni nomlash.
2.Ma'lumotlarning turlari.
3.O'zgaruvchilarga qiymat berish.
4.Ma'lumotlarni bir turdan boshqasiga o’zgartirish
5.O'zgaruvchini o’chirish

Python dasturlash tilida boshqa dasturlash tillaridagi kabi o’zgaruvchilar aniq bir turdagi berilganlarni saqlash uchun xizmat qiladi. Python dasturlash tilida o’zgaruvchilar alfavit belgilari yoki tag chizig’i belgisi bilan boshlanishi va tarkibi son, alfavit belgilari, tag chizig’i belgilaridan iborat bo’lishi, ya`ni bir so’z bilan aytganda identifikator bo’lishi kerak. Bundan tashqari o’zgaruvchi nomi Python dasturlash tilida ishlatiladigan kalit so’zlar nomi bilan mos tushmasligi shart. Masalan, o’zgaruvchi nomi *and, as, assert, break, class, continue, def, del, elif, else, except, False, finally, for, from, global, if, import, in, is, lambda, None, nonlocal, not, or, pass, raise, return, True, try, while, with, yield* kabi kalit so’zlar nomi bilan mos tushishi mumkin emas.

Masalan, o’zgaruvchini aniqlash (hosil qilish) quyidagicha amalga oshiriladi:




1.4.1-rasm

Yuqorida *a* va *name* o’zgaruvchilari yaratildi va ularga qiymat berildi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, Python dasturlash tilida o’zgaruvchini dastlab e`lon qilish degan tushuncha mavjud emas (masalan: c++ tilida *int a* kabi o’zgaruvchi e`lon qilinadi), balki o’zgaruvchi kiritiladi va unga qiymat beriladi (masalan: *a=14*). Berilgan qiymatga ko’ra interpretator o’zgaruvchining turini aniqlaydi. Python dasturlash tilida o’zgaruvchilarni nomlashning ikki turi: “camel case” va “underscore notation” turlaridan foydalanish tavsiya qilingan.

“camel case” turida o’zgaruvchiga nom berilganda, agar o’zgaruvchi nomi alohida so’zlar birikmasidan tashkil topgan bo’lsa, ikkinchi so’zdan boshlab har bir so’zning birinchi harfi katta harfda (katta registr) bo’lishi talab qilinadi. Masalan:




1.4.2-rasm

“underscore notation” turida esa so’zlar orasiga tag chizig’i “_” belgisi qo’yiladi. Masalan:




1.4.3-rasm

O’zgaruvchilar biror bir turdagi berilganlarni saqlaydi. Python dasturlash tilida bir necha xildagi berilganlar turlari mavjud bo’lib, ular odatda to’rtta guruhga ajratiladi:

sonlar, ketma-ketliklar, lug’atlar va to’plamlar:

*bool* (*boolean*) – True va False mantiqiy qiymatlar uchun;

*int* – butun sonlar uchun, butun turdagi songa kompyuter xotirasida 4 bayt joy

ajratiladi;

*float* – suzuvchan nuqtali sonlar (haqiqiy sonlar) uchun, haqiqiy sonlarni

saqlash uchun kompyuter xotirasidan 8 bayt joy ajratiladi; *complex* – kompleks sonlar uchun;

*str* – satrlar uchun, Python 3.x versiyasidan boshlab satrlar bu- Unicode

kodirovkasidagi belgilar ketma-ketligini ifodalaydi;

*bytes* – 0-255 diapazondagi sonlar ketma ketligi uchun

*byte array* – baytlar massivi uchun;

*list* – ro’yxatlar uchun;

*tuple* – kortejlar uchun;

*set* – tartiblanmagan unikal ob`ektlar kollektsiyasi uchun;

*frozen set* – set singari, faqat u o’zgartirilishi mumkin emas (immutable);

*dict* – lug’atlar uchun. Har bir element kalit so’z va qiymat juftligi ko’rinishida ifodalaniladi.

Python –dinamik turlarga ajratuvchi dasturlash tili hisoblanadi. Yuqorida aytib o’tilganidek, Python dasturlash tilida o’zgaruvchi turi unga yuklangan qiymat orqali aniqlanadi. Agarda o’zgaruvchiga bittalik (‘) yoki ikkitalik (“) qo’shtirnoq yordamida satr yuklansa, o’zgaruvchi *str* turiga ega bo’ladi, agarda o’zgaruvchiga butun son yuklansa – *int*, haqiqiy son yuklansa (masalan: 3.14) yoki eksponentsial ko’rinishdagi qiymat yuklansa (masalan: 11e-1) u *float* turiga ega bo’ladi.

Masalan:

```
user_id = 234  #
int x = 1.2e2  # = 1200.0
float y = 6.7e-3 # = 0.0067
float z = 1.223 # float
user_password = "sdy123"  #  str b = True # bool
```

1.4.4-rasm

Python dasturlash tilida haqiqiy (float) turidagi o’zgaruvchilar [$-10^{308}$ , $+10^{308}$] oraliqdagi sonlar bilan hisoblash ishlarini amalga oshirsa bo’ladi, lekin faqat 18 ta raqamlar ketma-ketligi ko’rinadi (konsol ekraniga chiqarilganda). Ixtiyoriy  katta yoki  kichik sonlarni o’zgaruvchidagi ifodasi 18 ta belgidan oshib ketsa, u holda eksponentsial orqali yaxlitlab ifodalanadi.

Shuni ham ta`kidlash kerakki, Python dasturlash tilida o’zgaruvchiga yangi qiymat berish orqali uning turi o’zgartirilishi mumkin. Masalan:




1.4.5-rasm

Ushbu dasturda dastlab *age =17* ifodasi orqali *age* o’zgaruvchisi *int* turiga ega edi. Keyingi *age = "o`n etti"* ifoda bilan uning turi *str* turiga o’zgartirildi. Bundan keyingi jarayonlarda *age* o’zgaruvchisi eng ohirgi yuklangan qiymat turiga mos bo’ladi.

O’zgaruvchilarning turini aniqlashda **type()** – funksiyasidan foydalaniladi. Masalan:




1.4.6-rasm

Konsol ekranidagi natija:

*<class 'int'>*

*<class 'str'>*

## Nazorat savollari

1.Pythonda qanday ma’lumot turlari bor?

2.Pythonda o’zgaruvchining turini qaysi funksiya orqali aniqlaymiz.

3.Pythondagi har bir tur uchun bitta o’zgaruvchi e’lon qiling va unga mos qiymatlarni bering.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

## 3-mavzu: Python dasturlash tilida arifmetik va mantiqiy amallar

**Mavzu rejasi:**

1. Matematik operatorlar,
2. Ikkilik operatorlar.
3. Ketma-ketlik operatorlari
4. O’zlashtirish operatorlari.
5.Operatorning bajarilish darajasi

**Arifmetik amallar.** Python dasturlash tilida asosiy arifmetik amallar o’z ma`nosi bo’yicha qo’llaniladi:

**+ - qo’shish amali:**

Ikki sonni yig’indisi

```
print(6 + 5)  # 11
```

1.5.1-rasm

**// - butun qismli bo’lish amali:**

Ikki sonni bo’linmasi (ushbu amal bo’lish natijasining faqat butun qismini qaytaradi, qoldiq qismi tashlab yuboriladi)

```
print(6 // 5)  # 1
```

1.5.2-rasm

Ifodada bir nechta arifmetik amallar ketma-ket kelgan bo’lsa, ular prioriteti (ustunligi) bo’yicha bajariladi. Dastlab, yuqori prioritetga ega bo’lgan amallar bajariladi. Amallarning prioriteti kamayish tartibida quyidagi jadvalda ifodalangan:

| **Amallar** | **Yo’nalish** |
|---|---|
| ** | Chapdan-o’ngga |
| *, /, //, % | Chapdan-o’ngga |
| +, - | Chapdan-o’ngga |

Misol sifatida quyidagi ifodani qaraymiz:


1.5.3-rasm

Bu erda dastlab eng yuqori prioritetga ega bo'lgan amal – darajaga ko'tarish amali bajariladi (2 ** 5 =32). Keyin ko'paytma (32 * 3 = 96), butun qismli bo'lish (12 // 7 = 1), qo'shish (1 + 96 = 97) va ayirish (97 – 4 = 93) amallari bajariladi. Ifoda bajarilishi natijasida 93 soni konsol ekraniga chiqariladi.

Amallarni qavsga olish orqali ularning bajarilish ketma-ketligini o'zimiz xoxlagan tartibga keltirib olishimiz ham mumkun. Masalan, yuqoridagi ifodani quyidagicha qayta yozamiz:


1.5.4-rasm

Natijada konsol ekraniga -31 soni chiqariladi.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, arifmetik amallar butun sonlar uchun qanday tartibda bajarilsa, suzuvchan nuqtali haqiqiy sonlar uchun ham xuddi shunday bo'ladi. Agarda ifodada loaqal bitta haqiqiy son ishtirok qilsa natija haqiqiy turda ifodalanadi.

Yuqoridagi barcha arifmetik amallarni o’zlashtirish amali (=) bilan birgalikda (arifmetik amal va undan keyin “=” belgisi ketma-ket yoziladi) ishlatish mumkin. Masalan: +=, -=, *=, /=, //=, %=, **=. Bunday hollarda ifodaning o’ng tomonidagi barcha amallar hisoblanib, chiqqan natija chap tomondagi o’zgaruvchi natijasi bilan mos arifmetik amal bajariladi va natija yana chap tomondagi o’zgaruvchiga yuklanadi. Masalan:

```
son=2
son+=3 #son=son+3 ga teng kuchli amal
print(son) #4
son-=1; print(son) #4
son*=4; print(son) #16
son//=2; print(son) #8
son**=; print(son) #64
```

1.5.4-rasm

Yuqoridagi misolda hisoblash natijalari kommentariyalarda ko’rsatilgan.

**Mantiqiy amallar.**

Murakkab shartli ifodalarni yozish, odatda mantiqiy amallar yordamida amalga oshiriladi. Python dasturlash tilida quyidagi mantiqiy operatorlar mavjud:

***and*** (mantiqiy ko’paytirish). Murakkab ifodadagi biror bir qism ifodani qiymati *False* bo’lsa, ifodaning yakuniy qiymati *False* , aks holda *True* qiymat qaytaradi. Masalan:



```
yoshi = 21
vazni = 72
natija = yoshi > 17 and vazni == 72
print(natija)  # True
```

1.11.1-rasm

Yuqoridagi dasturda murakkab mantiqiy amal ikki qismdan yoshi > 17 va vazni > 56 qismlardan tashkil topgan bo'lib, ular *and* mantiqiy operatori bilan birlashtirilgan. Agarda ikkala mantiqiy amal *True* qiymat qaytarsa ifodaning qiymati *True* bo'ladi, aks holda *False* qiymat qaytaradi.

Matriqiy ifodalarda faqatgina taqqoslash amallaridan foydalanish shart emas. Ixtiyoriy mantiqiy amal yoki *boolean* turidagi qiymatlar (*True*, *False*) ham ishlatilishi mumkin. Masalan:

```
yoshi = 21
vazni = 72
t = True
natija = yoshi > 17 and vazni > 56 and t
print(natija)  # True
```

1.11.2-rasm

***or*** (mantiqiy qo'shish). Agarda ifodadagi biror bir qism ifoda *True* qiymat qaytarsa, yakuniy natija ham *True*, aks holda *False* bo'ladi.




1.11.3-rasm

***not*** (mantiqiy inkor). Ifodaning qiymatini *True* bo’lsa, natija *False* va aksincha.




1.11.4-rasm

*and* operatorining biror bir operandi *False* qiymatga ega bo’lsa, u holda boshqa operand qiymati tekshirib (hisoblanib) o’tirilmaydi, har doim natija *False* bo’ladi. Bunday xususiyat ish unumdorligini bir oz bo’lsada oshirish imkonini beradi. Xuddi shunaqa xususiyat *or* operatori uchun ham o’rinli. Ya`ni *or* operatorining biror bir operandi qiymati *True* qiymatga ega bo’lsa, boshqa operandlar tekshirilmaydi, natija sifatida har doim *True* qiymati qaytariladi.

Agar bitta ifodada bir nechta mantiqiy operatorlar qatnashgan bo’lsa, u holda ularning ustunligiga (prioritetiga) alohida e`tibor qatarish kerak. Dastlab *not* operatori keyin *and* va eng so’ngra *or* operatori bajariladi. Masalan:

```
yoshi = 22 xolati = False vazni = 58
natija = vazni == 58 or xolati and not yoshi > 21  # True
print(natija)
```

1.11.5-rasm

Ushbu dasturda keltirilgan ifodadagi mantiqiy amallar kuyidagi ketmaketlikda bajariladi:

1. *not yoshi > 21* mantiqiy ifoda *False* qiymat qaytaradi;
2. *xolati and False* (*not yoshi > 21*) esa *False* qiymat qaytaradi;
3. *vazni == 58 or True* (*xolati and not yoshi > 21*) esa *True* qiymat qaytaradi.

Shuni alohida ta`kidlash kerarki, mantiqiy ifodalarda mantiqiy amallarning bajarilish ketma-ketligini qavslar (, ) yordamida o'zgartirish mumkin.

Nazorat savollari

1.Amallar prioriteti nima?

2.Berilgan 3 xonali sonning 10liklar xonasidagi raqamni chiqaruvchi dastur tuzing. (// va % amalllaridan foydalaning)

3. Pythonda kiritilgan matnni o'zini chiqaruvchi dastur yozing. Dasturni komentariyalarda har bir qator uchun tushuntirib bering.

4.Pythonda *or* va *and* mantiqiy operatorlarni farqini tushuntiring?

5.Pythonda inkor opeatorini qaysi?

6.3 ta son beriladi va shu sonlardan eng kata va eng kichigining o'rta arifmetigini hisoblovchi dastur tuzing?.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

## 4-mavzu:Pyton dasturlash tilida shartli o’tish operatori

**Mavzu rejasi:**

1.Tarmoqlanuvchi operator If... Else
2.Tarmoqlanuvchi operatorning  if . . . elif va boshqa ko’rinishlari

*if* shartli o’tish operatorida shart qo’llanilib, uning natijasiga ko’ra dastur bajarilishi u yoki bu qatorga  yo’naltiriladi. U quyidagi umumiy ko’rinishga ega:

***if*** *mantiqiy ifoda**:***

*ifodalar*

***elif*** *mantiqiy ifoda**:***

*ifodalar*

***else:***

*ifodalar*

*if* shartli o’tish operatorining eng sodda ko’rinishida *if* kalit so’zidan keyin mantiqiy ifoda yoziladi va undan keyin albatta ikki nuqta (:) qo’yiladi. Keyingi qatordan amallar yoziladi. Har bir amal alohida qatorda yozilishi yoki ularni nuqta

vergul (;) bilan ajratgan holda bitta qatordan yozish talab qilinadi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki Python dasturlash tilida boshqa tillardagi kabi if shart amalini tana qismini ifodalovchi maxsus belgilar mavjud emas (masalan: c++, c# da *{,}* blok belgilari ishlatiladi). Shu sababli uning tana qismidagi ifodalar *if* kalit so'ziga nisbatan bitta xat boshi (to'rtta probel) belgisi tashlab yoziladi. Masalan:

```
yoshi = 21
if yoshi >18:
    print("Kirishga ruxsat beriladi")
print("Tamom")
```

1.15.1-rasm

Bu erda *if* kalit so'zidan keyin *yoshi >18* mantiqiy ifoda kelgan. Tana qismi bitta ifodadan tashkil topgan, ya`ni *print("Kirishga ruxsat beriladi")* va u *if* ga nisbatan bitta xat boshi tashlab yozilgan. Keyingi qatordagi *print("Tamom")* ifodasi *if* ning tana qismiga tegishli emas, shuning uchun u *if* bilan bir ustunda yozishgan va bu xabar shart bajarilish-bajarilmasligidan qat`iy nazar har doim konsol ekraniga chiqariladi.

Agarda *print("Tamom")* ifodasi oldiga bitta xat boshi qo'ysak, u holda ushbu ifoda ham *if* blokiga tegishli bo'lib qoladi, ya`ni

```
yoshi = 21
if yoshi >18:
    print("Kirishga ruxsat beriladi")
    print("Tamom")
```

1.15.2-rasm

Ushbu holatda shart bajarilsa, ikkala xabar ham konsol ekraniga chiqariladi, aks holda hech biri chiqarilmaydi.

*if* shart ifodasi *false* qiymat qaytaradigan holatda qandaydir amal bajarilishini aniqlash uchun *else* blokida bajarilishi kerak bo'lgan amallar yoziladi. Masalan:

Agar *yoshi >18* shart bajarilsa *if* blokidagi aks holda *else* blokidagi amallar bajariladi.

```
yoshi = 21
if yoshi >18:
    print("Kirishga ruxsat beriladi")
else:
    print("Kirishga ruxsat beriladi")
```

1.15.3-rasm

Bir necha alternativ shartlarni ishlatish uchun qo'shimcha *elif* blokidan foydalaniladi.

```
# ax^2+bx+c=0 kvadrat tenglama echimlari soni
a= int(input("a="))
b= int(input("b="))
c= int(input("c="))
d = b**2 - 4*a*c
if d >0:
    print("Tenglama 2 ta haqiqiy echimga ega")
elif d == 0:
    print("Tenglama 1 ta haqiqiy echimga ega")
else:
    print("Tenglama haqiqiy echimga ega emas")
```

1.15.4-rasm

**Ichma-ich joylashgan *if* shart amali.** *if* shart operatori o'z navbatida boshqa *if* shart operatorlaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Bunday holatga ichma – ich joylashgan shart ifodasi deyiladi. Masalan:

```
protsent = int(input("Protsentni kiriting: "))
if protsent > 10:
    print("10% dan katta")
if protsent > 20:
        print("20% dan katta")
```

1.15.5-rasm

Yuqoridagi misolda ichki *if* ifodasi tashqarisidagiga nisbatan bitta xat boshi tashlab yozilili shart, aks holda ichma – ich joylashgan shatr operatori bo'lmay, alohida shart operatori hosil qilingan bo'ladi.

Quyidagi *if* operatoriga misolda oylik maoshdan shkala bo'yicha tutib qolinadigan jami daromad solig'ini hisoblovchi dastur tuzilgan:

```
# Qoidaga ko`ra daromad solig`i eng kam ish haqiga(EKIH) bog`liq
maosh = int(input("Oylin summasini kiriting"))
EKIH = int(input("Eng kam ish haqini kiriting"))
dar_soliq =0
if maosh < 6 * EKIH:
    dar_soliq= maosh*0.065
elif maosh< 10 * EKIH:
    dar_soliq = 6 * EKIH * 0.065 + (maosh - 6* EKIH)* 0.165
else:
    dar_soliq = 6 * EKIH * 0.065 + 4 * EKIH * 0.165 +  (maosh - 10* EKIH)* 0.225
print("Oylikdan ushab qolingan darmod solig`i: ",dar_soliq)
```

1.15.6-rasm

**Pythonda rostlikka tekshirish.**

- Har qanday nolga teng bo`lmagan son yoki bo`sh bo`lmagan obyekt-rost
- Nol yoki bo`sh obyekt-yolg`on
- Taqqoslash amallari True yoki False qiymat qaytaradi

Mantiqiy operatorlar and va or rost yoki yolg`on obyekt-operandni qaytadi

Mantiqiy operatorlar:

| X and Y |
|---|

Rost, agar x va y ham rost bo`lsa

| X or Y |
|---|

Rost, agar x yoki y dan bittasi rost bo’lsa

| Not X |
|---|

Rost, agar x yolg`on bo`lsa

## Nazorat savollari

1.Pythonda ichma-ich joylashgan ifodalarni tushuntiring?

2. Temurning bir poda qo‘ylari bor. U sizga qo‘ylarining jami oyoqlari sonini aytadi. Siz esa podadagi qo‘ylarda jami bo‘lib nechta quloq borligini topishingiz kerak. Agar Temur sanashda adashib ketgan bo‘lsa, -1 sonini, aks holda, masalada so‘ralgan sonni chop eting.

3.Son beriladi shu son qaysi oyga tegishli ekanini topuvchi dastur tuzing.Agar son 12 dan kata bo’lsa “Bunday oy mavjudmas” degan natija qaytaring. Bu dasturni ichma-ich shart amali yordamida bajaring.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

## 5-mavzu:Pyton dasturlash tilida For… takrorlash operatori

**Mavzu rejasi:**

1.Takrorlanuvchi operator For …
2.Range() va enumerate() funksiyalari

### *for* takrorlash operatori

Yana bir takrorlash operatori – *for* operatori hisoblanadi. *for* takrorlash operatori qandaydir sonlar kollektsiyasidagi har bir son uchun chaqiriladi. Sonlar kollektsiyasi *range*() funksiyasi, *list*() funksiyasi yoki [,] qavslarda foydalanuvchi tomonidan shakllantirilgan ro’yxatlar orqali hosil qilinadi. Quyida *for* takrorlash operatorining formal aniqlanishi keltirilgan: *for* int_var *in* funksiya_range:

*instruktsiyalar*

*for* kalit so’zidan keyin *int_var* o’zgaruvchisi (o’zgaruvchi nomi ixtiyoriy bo’lishi mumkin) keladi va u faqat butun turdagi qiymatlar qabul qiladi, undan keyin *in* kalit so’zi (*in* operatori) va *range* funksiyasi chaqirilgan va oxirida “:” belgisi bilan takrorlash operatori asosiy qismi tugaydi. *for* takrorlash operatorining

tana qismi bir yoki bir nechta instruktsiyalardan tashkil topishi mumkin va ular asosiy qismga nisbatan bitta xat boshi tashlab yoziladi.

Takrorlash operatori bajarilganda *range()* funksiyasi hosil qilgan sonlar kollektsiyasidan sonlar ketma-ket *int_var* o'zgaruvchisiga uzatiladi. Sikl bo'yicha barcha sonlar ketma-ket o'tib bo'lingandan keyin takrorlash operatori o'z ishiti tugatadi.

Quyida 1 dan *n* gacha bo'lgan sonlar yig'indisini hisoblash dasturi *for* operatori yordamida amalga oshirilgan:

```
sum = 0
n = int(input("n="))
for i in range(1,n+1):
    sum = sum + i
print("summa(1+...+n) =", sum)
```

1.16.2-rasm

Dastlab konsol ekranidan butun son kiritiladi. Siklda *i* o'zgaruvchisi aniqlangan bo'lib, u *range()* funksiyasidan qaytarilgan qiymatni o'zida saqlaydi. Bu erda *range()* funksiyasi 2 ta parametr qabul qilgan. Birinchisi sonlar kollektsiyasini boshlang'ich qiymati va ikkinchisi oxirgi qiymati ( oxirgi qiymat kollektsiyaga kirmaydi). Natijada *range()* funksiyasi [1,…,*n*-1] intervaldagi sonlarni ketma-ket qiymat sifatida qaytaradi va har bir qiymat uchun sikl operatorining tana qismi bajariladi.

***range* funksiyasi**. *range* funksiyasining quyidagi shakllari mavjud:

*range(stop)* – *0* dan *stop* gacha (*stop* kirmaydi) bo'lgan barcha sonlarni qaytaradi; *range(start, stop)* – *start(kiradi)* dan *stop (kirmaydi)* gacha bo'lgan barcha

butun sonlarni qaytaradi; *range(start, stop, step) – start (kiradi)* dan *stop (kirmaydi)* gacha bo'lgan
barcha butun sonlar *step* qadam bilan hosil qilinadi va qaytaradi.

Masalan:

```
print(list(range(5)))        #[0, 1, 2, 3, 4]
print(list(range(1,5)))      #[1, 2, 3, 4]
print(list(range(1,5,2)))    #[1, 3]
print(list(range(-5,5,3)))   #[-5, -2, 1, 4]
```

1.16.3-rasm

Bu erda *range(5)* funksiyasi [*0, 1, 2, 3, 4*] oraliqdagi sonlar kollektsiyasini qaytargan va qaytarilgan sonlarni ro'yxatda jamlash uchun *list()* funksiyasi qo'llanilgan. *range()* funksiyasining boshqa holatlarda qanday qiymatlar hosil qilishini yuqoridagi dasturdan ko'rish mumkin.

**Ichma-ich joylashgan sikllar.** Biror bir takrorlash operatori tanasida boshqa takrorlash operatorining ishlatilishiga ichma-ich joylashgan sikl deyiladi. Masalan:

```
for i in range(1, 5):
    for j in range(1, 5):
        print(i + j, end="\t")
    print("\n")
```

1.16.4-rasm

Natija konsolda quyidagi ko'rinishda chiqariladi:


1.16.5-rasm

**Rasm №2.** Natijaning konsol ekranidagi ko'rinishi

Yuqoridagi holatda *for i in range(1,5)* bo'yicha tashqi siklning har bir iteratsiyasi uchun, *for j in range(1,5)* bo'yicha ichki sikl bajariladi.

**Nazorat savollari**

1.Pythonda *range* metodini tushuntiring?

2.Pythonda *for siklini* tushuntiring?

3. Pythonda 100 gacha bo'lgan butun sonlardan juftlar yig'indisidan toqlar yig'indisining ayirmasini hisoblang.

4. Pythonda ichma-ich takrorlash sikllarini tushuntiring.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО "Диалектика", 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО "Диалектика", 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**6-mavzu: Python dasturlash tilida While …takrorlash operatori**

**Mavzu rejasi:**

1.While takrorlash operatori.
2.Continue operatori: takrorlashning keyingi iteratsiyasiga o‘tish.
3.Break operatori: takrorlashni bekor qilish yoki buzish

### while takrorlash operatori

while takrorlash operatori quyidagi umumiy ko’rinishga ega:

while *shart ifodasi*:

*instruktsiyalar while* kalit so’zidan keyin shart ifodasi ko’rsatiladi va ushbu shart ifodasi rost qiymat (*True*) bo’lar ekan amallar ketma-ketligi takror va takror bajarilishda davom ettiriladi. *while* operatorining barcha insturtsiyalari undan keyingi qarorda yoziladi va u *while* kalit so’zidan bitta xat boshi tashlab yoziladi. Masalan:

```
sum = 0
n = int(input("n="))
i = 1
while i <= n:
    sum = sum + i
    i += 1
print("summa(1+...+n) =", sum)
```

1.16.1-rasm

Yuqoridagi misolda 1 dan *n* gacha bo’lgan sonlar yig’indisi hisoblash dasturi *while* operatori yordamida amalga oshirilgan. E`tibor berilsa *while* operatorining insturktsiyalari undan keyingi qatorda bitta xat boshi tashlab yozilgan. Ushbu holatda *while* operatori 2 ta instuktsiyalardan tashkil topgan (*sum = sum + i* va *i += 1*).

**Sikldan chiqish. *break* va *continue* operatorlari.** Sikllarni boshqarish uchun *break* va *continue* kabi maxsus operatorlardan foydalaniladi. *break* operatori sikldan chiqish uchun ishlatiladi. *continue* operatori siklning navbatdagi iteratsiyasiga o'tish uchun ishlatiladi.

Odatda *break* operatori siklda shart operatorlari bilan birga qo'llaniladi, masalan:

```
while True:
    ch = input("Chiqish uchun 'Y' klavishini bosing")
    if ch.lower() == 'y':
        break
    s=0
    n = int(input("n="))
    for i in range(1,n+1):
        s += i
    print("Summa(1, ... ,n)=",s)
```

1.16.6-rasm

Yuqoridagi dasturda foydalanuvchi tomonidan kiritilgan *n* uchun 1 dan *n* gacha bo'lgan sonlar yig'indisini hisoblash amalga oshirilgan. Agar foydalanuvchi yana boshqa son uchun yig'indini hisoblamoqchi bo'lsa, dasturdan chiqib ketmasdan uni davom ettirishi mumkin. Buning uchun u 'Y" belgisidan boshqa ixtiyoriy belgini ekrandan kiritishi kerak. Sikldan chiqish sharti *if ch.lower() == 'y'* da tekshirilgan.

**Nazorat savollari**

1.Pythonda *break* va *continue* operatorlarining farqini tushuntiring.
2.Pythonda *while* takrorlash siklini tushuntiring?
3. Pythonda 100 gacha bo'lgan butun sonlardan juftlar yig'indisidan toqlar yig'indisining ko'paytmasini hisoblang.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

## 7-mavzu: Sonlar bilan ishlash funksiyalari

**Mavzu rejasi:**

1.Sonlar bilan ishlashning o'rnatilgan funktsiyalari va usullari

2.Math moduli. Matematik funktsiyalar.

3.Random moduli. Tasodifiy sonlari shakllantirish.

Haqiqiy sonlar ham butun sonlar qo`llab quvvatlovchi operatsiyalarni qo`llab quvvatlaydi. Haqiqiy sonlarni ishlatilishiga oddiy misol:

```
son = 13.46

# sonning round metodi
rounded_number = round(son)
print(rounded_number)

# Output: 13

absolute_number = abs(son)
print(absolute_number)

# Output: 20
```

1.8.1-rasm

Haqiqiy sonlar ustida bajarilishi mumkin bo`lgan ba`zi metodlar:

**float.as_integer_ratio-** shu haqiqiy son bilan juftlik munosabatida bo`lgan butun son.

**float.is_integer()-** ko`rsatgich butun son bo`lish bo`lmasligini tekshiradi.
**float.hex()**-float ni hex ga (o`n oltilik sanoq sistemasiga) o`tkazadi.
classmethod **float.fromhex(s)-** o`n oltilik sanoq sistemasisdan floatga otkazadi. Ya'ni float.hex() ni teskarisi.

```
print(1.5.is_integer())
#False
print(1.0.is_integer())
#True
print(1.4142135623730951.is_integer())
#False
```

1.8.2-rasm

```
# import the math module
import math

# 0 sonning ildizi
print(math.sqrt(0))

# 4 sonning ildizi
print(math.sqrt(4))

# 3.5 sonning ildizi
print(math.sqrt(3.5))
```

1.8.3-rasm

```
# Math kutubxonasini yuklaymiz
import math

# PI sonini chop etamiz
print (math.pi)
```

1.8.4-rasm

**Nazorat savollari**

1.Pythonda sonni butun yoki haqiqiylikka tekshiruvchi metod qaysi va u qanday natijalar qaytardi?

2.Pythonda π sonini 16 lik sanoq sistemasiga o'tkazing?

3.Pythondagi Math kutubxonasidagi *sqrt* metodini tushuntiring.

4. Pythondagi Math kutubxonasidagi *abs* metodini tushuntiring.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО "Диалектика", 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО "Диалектика", 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**8-mavzu: Satrlar bilan ishlash funksiyalari**

**Mavzu rejasi:**

1.Satrlarni yaratish.
2.Maxsus belgilar.
3.Satrlar ustida amallar.
4.Satrlarni formatlash.

5.Format() usuli.
6.Satrlar bilan ishlash funksiyalari va usullari

Satrlar – qo’shtirnoq ichiga olingan *Unicode* kodidagi belgilar ketma-ketligi orqali ifodalanadi. Python dasturlash tilida satriy ifoda apostrof (‘) va (“) qo’shtirnoqlar orqali berilishi munkin. Uchta ketma-ket kelgan apostrof ham satrlarni ifodalashda ishlatiladi.

```
ismi = "Yusupov"
familiyasi = 'Yusuf'
print(ismi, familiyasi)  # Yusupov Yusuf
```

1.13.1-rasm

Satrlar ustida eng keng tarqalgan amallardan biri bu ularni birlashtirish yoki konkatenatsiya amali hisoblanadi. Satrlarni birlashtirish uchun + amali qo’llaniladi. Masalan:

```
ism = "Yusuf"
yosh = 33
info = "Ismi: "+ ism + " yoshi: "+ str(yosh)
print(info)
# Ismi: Yusuf yoshi: 33
```

1.13.2-rasm

Agar satr va sonlarni birlashtirish talab qilinsa, u holda *str()* funksiyasi yordamida sonni satr turiga keltirish kerak bo'ladi. Masalan:

```
ism = "Yusuf" yosh = 33
info = "Ismi: "+ ism + " yoshi: "+ str(yosh) print(info)
# Ismi: Yusuf yoshi: 33
```

1.13.3-rasm

**Maxsus belgilar**: Python dasturlash tilida boshqa tillardagi kabi quyidagi maxsus belgilar mavjud:

| **Xizmatchi belgilar** | **Vazifasi** |
|---|---|
| \n | Keyingi qatorga o`tish |
| \a | Qo`ng`iroq |
| \f | Keyingi betga o`tish |
| \r | Koretkani qaytarish |
| \t | Gorizontal tabulatsiya |
| \v | Vertical tabulatsiya |
| \N{id} | Unicode ma'lumotlar bazasining ID identifikatori |
| \uhhhh | Unicode ning 16 lik ko`rinishidagi 16 bitli belgisi |
| \Uhhhh. . . | Unicode ning 32 lik ko`rinishidagi 32 bitli belgisi |
| \xhh | Belgining 16 lik kodi |
| \ooo | Belgining 8 lik kodi |
| \0 | Null belgisi (satr oxiri belgisi emas) |

Ekran bilan ishlash ketma-ketliklari.

Quyidagi misolda yuqoridagi barcha maxsus belgilarni qo’llangan holat uchun dastur keltirilgan.

```
print("1-chi kurs\n\"O\'MU\"\ttalabasi")
```

1.13.4-rasm

Konsol ekraniga quyidagicha natija chiqariladi:

*1-chi kurs*

*"O'MU"  talabasi*

**Satrlarni taqqoslash:** Satrlarni taqqoslashda satrda ishtirok etayotgan belgilarning registriga alohida e`tibor qaratish lozim. Har qanday raqam ixtiyoriy alfavit belgisidan shartli kichik hamda katta registrli alfavit belgilari kichik registrli avfavit belgilaridan shartli kichik sanaladi. Masalan:

```
str1 = "1a" str2 = "ab"
str3 = "Aa" print(str1 > str2)  # False, chunki str1 ning birinchi
                    # belgisi raqam
print(str2 > str3)  # True, chunki str2 ning birinchi
# belgisi kichik registrga ega
```

1.13.5-rasm

Yuqoridagi dasturda *“1a”>”ab”* sharti *False* qiymat qaytaradi. Chunki raqam alfavit belgisidan shartli kichik hisoblanadi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, ikki satr solishtirilganda ularning mos tarkibiy elementlari solishritiladi(*“1a”>”ab”* holatda, dastlab 1 va “a” tekshiriladi). Agarda solishtirish natijasi teng bo’lsa navbatdagi mos elementlari solishtiriladi. Jarayon birinchi teng bo’lmagan holat

topilganda yoki satrlardan birining oxiriga yetib kelinganda tugatiladi. Agar satrlarning dastlabki barcha mos elementlari teng, faqat ularning uzunliklari farqli bo'lsa, u holda uzunligi katta satr shartli katta bo'ladi.

Masalan: *"abcd"<"abcde"* sharti *True*

Bundan tashqari satrlar ustuda amal bajaradigan *upper*() va *lower*() funksiyalari mavjud bo'lib, satr tarkibidagi alfavit belgilarni mos ravishda kichik va katta registrlilariga almashtirish uchun ishlatiladi. Masalan:

```
str1 = "Kitob"
str2 = "kitob"
print(str1 == str2)  # False - chunki ularni birinchi
                     # harflari turli registrda
print(str1.lower() == str2.lower())  # True chunki ikkala
                      # satr ham kichik registrga keltirilgan
```

1.13.6-rasm

**Nazorat savollari**

1.Pythonda **\v** va **\n** ning faqrini tushuntiring?
2.Pythonda *lower()* va *upper()* metodining vazifasini tushuntiring?
3."AssalomuAlaykum" matniga shunday maxsus belgi qo'yingki "Assalomu" birinchi qatorda va "Alaykum" ikkinchi qatorga chiqaruvchi dastur tuzing.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.
3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**9-mavzu: Satrdagi ma’lumotlarni izlash**

**Mashg’ulot rejasi:**

1.Satrdagi ma’lumotlarni qidirish va almashtirish.
2.Satrning kontent turini tekshirish.
3.Satr sifatida berilgan ifodalarni hisoblash.
4.Bytes ma'lumotlar turi.Satrni shifrlash

**Satr ostilarini olish**

Agar zarur bo'lsa, satrdan nafaqat bitta belgini, balki satr ostisini ham olishimiz mumkin. Buni amalga oshirish uchun quyidagi sintaksisdan foydalanamiz:

- string[: end] – 0-indeksdan boshlab *end*gacha belgilar ketma-ketligini oladi;
- string[start: end] – *start* indeksdan *end* indeksigacha bo’lgan belgilarni oladi;
- string[start: end: step] – *step* qadam bilan *start* indeksdan boshlab *end* indeksgacha bo’lgan belgilar kerma-ketligini oladi.

Satr ostisini olish uchun barcha variyantlardan foydalanamiz:

```
string = "hello world"

#  0 dan 5 gacha belgilar
sub_string1 = string[:5]
print(sub_string1)  # hello

#  2 dan 5 gacha belgilar
sub_string2 = string[2:5]
print(sub_string2)  # llo

# 2 dan 9 gacha bitta belgi tashlab
sub_string3 = string[2:9:2]
print(sub_string3)  # lowr
```

4.1.4-rasm

Satr uzunligi (satrdagi belgilar soni)ni olish uchun *len()* funksiyasidan foydalanish mumkin:

```
print(ord("A"))     # 65
```

4.1.5-rasm

```
string = "hello world"
length = len(string)
print(length)   # 11
```

4.1.6-rasm

**Satrdan izlash**

Satrdan *term* satr ostisini qidirish uchun *term in string* ifodasidan foydalanamiz. Agar satr ostisi topilsa ifoda *True* qiymat qaytaradi, aks holda *False* qiymat qaytaradi:

```
string = "hello world"
exist = "hello" in string
print(exist)  # True

exist = "sword" in string
print(exist)  # False
```

4.1.7-rasm

Satrlarni ajratish

*for* sikl operatori yordamida satrning barcha elementlarini ajratib olish mumkin:

```
string = "hello world"
for char in string:
    print(char)
```

4.1.8-rasm

**Nazorat savollari**

1.Pythonda *ord* va *chr* metodlar farqini tushuntiring.

2. Pythonda “Havo isiyapti” matnini har bir harfini alohida satrda ASCII kodini chiqaruvchi dastur tuzing.

3.Pythonda matnning ichidan ma’lum bir so’zni qidiruvchi dastur tuzing.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**10-mavzu: Regulyar ifodalar**

**Mashg’ulot rejasi:**

1.Oddiy(regulyar) ifoda sintaksisi.
2.Qolip(shablon)ning birinchi mosligini topish
3.Qolip(shablon) bilan barcha mosliklarni toppish.
4.Satrda almashtirish

Satr turida aniqlangan *format()* metodi satrlarni formatlash imkonini beradi.

Formatlashda satrda aniqlangan to'ldiruvchilar o'rniga ularning qiymatlarini qo'yish mumkin. Satrda to'ldiruvchilar maxsus "{}" figurali qavslar ichida aniqlanadi.

Parametrlarni nomlash

Formatlanayotgan satrda partametrlarni aniqlash mumkin va ularga *format()* metodi ichida qiymat beriladi:

```
text = "Hello, {first_name}.".format(first_name="Tom")
print(text)  # Hello, Tom.

info = "Name: {name}\t Age: {age}".format(name="Bob", age=23)
print(info)  # Name: Bob     Age: 23
```

4.3.1-rasm

Bundan tashqari, *format()* metodida argumentlar satrdagi parametrlar bilan bir xil nom bilan aniqlanishi shart. Shunday qilib, agar parametr birinchi holatda bo'lgani kabi first_name deb ataladigan bo'lsa, unda qiymati tayinlangan argument ham first_name deb nomlanadi.

O'rinlar bo'yicha parametrlar

Parametrlarni nomlashdan tashqari noldan boshlab raqamlash ham mumkin, bu holda *format()* metodiga parametrlarning faqat qiymatlari uzatiladi va parametrlar kelish tartibi bo'yicha satrga joylashtiriladi:

```
info = "Name: {0}\t Age: {1}".format("Bob", 23)
print(info)     # Name: Bob  Age: 23
```

4.3.2-rasm

Bunday holda parametni satrda bir necha bor foydalanish mumkin:

```
text = "Hello, {0} {0} {0}.".format("Tom")
```

4.3.3-rasm

O’rin almashtirish

O’rin almashtirish va maxsus to’ldiruvchilar satrga formatli qiymalarni berishning yana bir usuli hisoblanadi. Formatlash uchun quyidagi maxsus to’ldiruvchilardan foydalanishimiz mumkin:

- s – satr qo’yish uchun;
- d – butun son qo’yish uchun;
- f – haqiqiy son qo’yish uchun. Bu tur uchun kasr qismidagi xonalar sonini nutqa orqali berish mumkin.
- % – 100 ga ko’paytiradi va foiz belgisini qo’shadi;  e – sonni eksponentsial ko’rinishda chiqaradi.

Maxsus to’ldiruvchining umumiy ko’rinishi quyidagicha:

```
{:to'ldiruvchi}
```

4.3.4-rasm

To’diruvchilarga bog’liq ravishda qo’shimcha parametrlar qo’shish mumkin. Masalan, *float* turidagi son uchun quyidagicha:

```
{:[belgilar_soni][vergul][.kasr_qismdagi_belgilar_soni] to'diruvchi}
```

4.3.5-rasm

*format*() metodi chaqirilganda, unga argument sifatida to'ldiruvchi o'rniga yoziladigan qiymatlar beriladi:

```
welcome = "Hello {:s}"
name = "Tom"
formatted_welcome = welcome.format(name)
print(formatted_welcome)  # Hello Tom
```

4.3.6-rasm

*format()* natijasi sifatida formatlangan yangi satr qaytadi.

**Butun sonlarni formatlash:**

```
source = "{:d} belgilar"
number = 5
target = source.format(number)
print(target)   # 5 belgilar
```

4.3.7-rasm

Agar formatlanayotgan son 999 dan katta bo'lsa, sonning raqamlarni guruhlarga ajratish uchun verguldan foydalanamiz:

```
source = "{:,d} belgilar "
print(source.format(5000))  # 5,000 belgilar
```

4.3.8-rasm

Haqiqiy son, yani, *float* turidagi sonlarning kasr qismidagi xonalar sonini aniq qilib belgilash uchun to’ldiruvchi oldidan, nuqtadan so’ng ularning sonini qo’yishimiz mumkin:

```
number = 23.8589578
print("{:.2f}".format(number))    # 23.86
print("{:.3f}".format(number))    # 23.859
print("{:.4f}".format(number))    # 23.8590
print("{:,.2f}".format(10001.23554))    # 10,001.24
```

4.3.9-rasm

Yana bir parametr harflardagi formatlangan qiymatning minimal kengligini belgilash imkonini beradi:

```
print("{:10.2f}".format(23.8589578))    #      23.86
print("{:8d}".format(25))               #       25
```

4.3.10-rasm

Foizini ko'rsatish uchun "%" kodini ishlatish yaxshiroq:

```
number = .12345
print("{:%}".format(number))          # 12.345000%
print("{:.0%}".format(number))        # 12%
print("{:.1%}".format(number))        # 12.3%
```

4.3.11-rasm

Eksponentsial belgilarda raqamni ko'rsatish uchun "e" to’ldirgichi ishlatiladi:

```
number = 12345.6789
print("{:e}".format(number))        # 1.234568e+04
print("{:.0e}".format(number))      # 1e+04
print("{:.1e}".format(number))      # 1.2e+04
```

4.3.12-rasm

## format() metodisiz formatlash

Umuman olganda, *format()* metodidan foydalanmasdan ham satrlarni formatlash mumkin:

*satr%(paratmetr1, paratmetr 2, paratmetrN)*

bu erda formatlarnishi kerak bo’lgan satrda barcha to’ldiruvchilar (% belgili to’ldiruvchi bundan mustasno) figurali qavslarga olinmasdan yoziladi va satrdan keyin % belgisi qo’yiladi, undan so’ng qavs ichida mos argumentlar ketma-ketligi yoziladi. Foiz belgisi to’diruvchilar old qismida ko'rsatiladi:

```
info = "Ism: %s \t Yosh: %d" % ("Tom", 35)
print(info)   # Ism: Tom     Yosh: 35
```

4.3.13-rasm

Formatlanayotgan satr va argumentlar ro’yxati orasidagi % belgisi – operator vazifasini bajaradi va natija sifatida formatlangan yangi sartni qaytaradi.

Bundan tashqari, raqamlarni formatlash usullari ham qo'llaniladi:

```
number = 23.8589578
print("%0.2f  - %e" % (number, number))   # 23.86  -2.385896e+01
```

4.3.14-rasm

**Nazorat savollari**

1.Pythonda *format* metodini tushuntiring.

2. Pythonda *format* metodisiz qanday qilib matnlarni chop etish mumkinligini tushuntiring.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**11-mavzu: Ro'yxatlar bilan ishlash**

**Mashg’ulot rejasi:**

1.Ro‘yxat yaratish.
2.Ro'yxatlar ustida amallar bajarish.
3.Ko'p o'lchovli ro'yxatlar
4.Ro‘yxat elementlarini takrorlash.

Ro’yxat (*list*) bu elementlar to’plami yoki ketma-ketligini saqlash uchun mo’ljallangan berilganlar turini ifodalaydi. Ro’yxatlarni hosil qilish uchun kvadrat

qavs([]) ichida uning barcha elementlari vergul bilan ajratilgan holda keltiriladi. Ko’pincha, boshqa tillarda shunga o’xshash berilganlar turini massiv deb ataladi.

Masalan quyida sonlar ro’yxatini aniqlaymiz:

*sonlar = [1, 2, 3, 4, 5]*

Ro’yxatlarni hosil qilish uchun *list()* konstruktoridan ham foydalaniladi:

*sonlar1 = [ ]*

*sonlar2 = list()*

Yuqoridagi ikkita ro’yxat o’xshash bo’lib, ular bo’sh ro’yxatni aniqlayapti.

*list*() konstruktori ro’yxat hosil qilish uchun parametr sifatida boshqa ro’yxatni ham qabul qilishi mumkin:




2.1.1-rasm

Ro’yxat elementiga murojaatni amalga oshirish uchun uning ro’yxatdagi tartib raqamini ifodalovchi indeksi orqali amalga oshiriladi. Indekslar noldan boshlanadi. Ya`ni ikkinchi elementning indeksi 1 ga teng bo’ladi. Ro’yxat elementlariga oxiridan (teskari tartibda) murojaatni amalga oshirish uchun manfiy indekslardan foydalaniladi. Ro’yxatning eng oxirgi elementiga murojaat uchun -1, oxiridan oldingi element uchun -2 indekslari mos keladi va h.k.. Ro’yxatdagi elementning qiymatini o’zgartirish uchun shu element indeksi orqali unga yangi qiymat yuklash orqali amalga oshiriladi:

```python
sonlar = [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8]

print(sonlar[0])    #1
print(sonlar[1])    #2
print(sonlar[-1])   #8
print(sonlar[-2])   #7

sonlar[0] = 100
print(sonlar[0])    #100
```

2.1.2-rasm

**Ro’yxatni butun songa ko’paytirish.** Python dasturlash tilida Ro’yxatni butun songa ko’paytirish amali ham kiritilgan bo’lib, odatda bunday amallar ro’yxatdagi barcha elementlarga ayni bir xil qiymatlarni yuklash uchun qo’llaniladi. Masalan, 6 ta elementining barcha qiymatlari 0 ga teng bo’lgan ro’yxatni aniqlash uchun quyidagicha kod yoziladi:

```python
son = [0] * 6
print(son) # [0, 0, 0, 0, 0, 0]
```

2.1.3-rasm

Bundan tashqari, sonlar ketma-ketligining ro’yxatini *range()* funksiyasidan foydalanib hosil qilish ham mumkin bo’lib, u uchta shaklga ega:

- *range(end)* – 0 dan *end* gacha (*end* kirmaydi) bo’lgan sonlar ketma-ketligi hosil qilinadi.
- *range(start, end)* – *start* dan *end* gacha (*end* kirmaydi) bo’lgan sonlar ketma-ketligi hosil qilinadi.

- *range(start, end, step)* – *start* dan *end* gacha (*end* kirmaydi) bo’lgan sonlar ketma-ketligi *step* qadam bilan hosil qilinadi.

Quyidagi ikkita ifoda orqali ayni bir xil bo’lgan ro’yxatlar aniqlangan bo’lib, ikkinchi ro’yxatni hosil qilishda *range* funksiyasidan foydalanish orqali kod hajmi bir muncha qisqartirilgan:

```
nums = list(range(6))
print(nums) #[0, 1, 2, 3, 4, 5]

nums = list(range(3,6))
print(nums) #[3, 4, 5]

nums = list(range(2,6,2))
print(nums) #[1, 3, 5]
```

2.1.4-rasm

```
nums = [0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9]
nums = list(range(10))
```

2.1.5-rasm

Ro’yxatlar bir turdagi ob`ektlardan tashkil topishi shart emas. Undagi har bir element turli xil toifaga ega bo’lishi mumkin:

```
objs = [1.2, True , 100, 'Satr', object]
print(objs) #[1.2, True, 100, 'Satr', <class 'object'>]
```

2.1.6-rasm

**Elementlarni birma-bir ko’rib chiqish**. Ro’yxat elementlarini birma-bir ko’rib chiqish uchun *for* yoki *while* takrorlash operatorlaridan foydalanish mumkin. *for* orqali birma-bir ko’rib chiqish:

```
poytaxtlar = ['London', 'Parij', 'Moskva', 'Tashkent']
for poytaxt in poytaxtlar:
    print(poytaxt)
```

2.1.7-rasm

*while* orqali birma-bir ko’rib chiqish:

```
poytaxtlar = ['London', 'Parij', 'Moskva', 'Tashkent']
i = 0
while i < len(poytaxtlar):
    print(poytaxtlar[i])
    i += 1
```

2.1.8-rasm

Bu erda *while* sikli orqali birma-bir ko’rib chiqishda *len* funksiyasidan foydalanilgan bo’lib, uning yordamida ro’yxat uzunligi olinadi. Bundan tashqari sanagich vazifasini bajaruvchi *i* o’zgaruvchisi bilan ro’yxatdagi barcha elementlarga murojaat amalga oshirilgan.

**Ro’yxatlarni taqqoslash**. Ikkita ro’yxat bir xil elementlardan tashkil topgan bo’lsa, bunday ro’yxatlar teng hisoblanadi.

```
nums1 = [0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9]
nums2 = list(range(10))
if nums1 == nums2:
    print("Bu ro`yxatlar aynan teng.")
else:
    print("Bu ro`yxatlar teng emas.")
```

2.1.9-rasm

Bu holatda ikkila ro’yxat teng hisoblanadi.

**Nazorat savollari**

1.Ro’yxat nima va Pythonda ro’yxatlar qanday yaratilishi mumkin?

2. *range()* funksiyasining ishlashini misollar bilan tushuntiring.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**12-mavzu: Ro'yxat funksiyalari bilan ishlash**

**Mavzu rejasi:**

1.Ro’yxatlar generatorlari va generator  ifodalari.
2.Map(), zip(), filter() va reduce() funksiyalari.
3.Ro'yxat elementlarini qo'shish va o'chirish.
4.Ro'yxatdagi elementni topish va ro'yxatdagi qiymatlar haqida ma'lumot olish.
5.Ro‘yxatni aylantirish va aralashtirish

**Ro’yxatlar bilan ishlashda qo’llaniladigan funksiyalar va metodlar**.

Ro’yxatlar bilan ishlashda qo’llaniladigan bir nechta metodlar mavjud bo’lib, ularning eng asosiylari quyida keltirilgan:

- ***append(item)***: ro’yxat oxiriga *item* elementini qo’shish;
- ***insert(index, item)***: Ro’yxatga *index* indeksi bo’yicha *item* elementini qo’shish;
- ***remove(item):*** ro’yxatdan *item* elementini o’chirish. Ushbu metod ro’yxatdagi birinchi uchragan *item* elementini o’chiradi. Agar bunday element ro’yxatda mavjud bo’lmasa *ValueError* istisno holati ro’y beradi;
- ***clear():*** ro’yxatni tozalash, ya`ni ro’yxatdagi barcha elementlarni o’chirish;
- ***index(item)***: ro’yxatdagi *item* elementining joylashgan indeksini qiymat sifatida qaytaradi. Agar bunday element ro’yxatda mavjud bo’lmasa, u holda *ValueError* istisno holati ro’y beradi;
- ***pop([index]):*** ro’yxatdan *index* indeksi bo’yicha elementni o’chiradi va qiymat sifatida qaytaradi. Agar indeks ko’rsatilmasa ro’yxatdan oxirgi elementni o’chiradi va qiymat sifatida qaytaradi. Bundan tashqari agar ro’yxat bo’sh bo’lsa, u holda *ValueError* istisno holati ro’y beradi;
- ***count(item):*** ro’yxatdagi *item* elementlar sonini qiymat sifatida qaytaradi;
- ***sort([key]):*** ro’yxat elementlarini tartiblaydi. Kelishuv bo’yicha, ro’yxat elementlarini o’sish bo’yicha tartiblaydi. *key* parametri orqali tartiblash funksiyasini (mezonini) berish mumkin;
- ***reverse():*** ro’yxat elementlarini teskari tartibda joylashtirish uchun qo’llaniladi.

Bundan tashqari, Python ro’yxatlar bilan ishlashda qo’llaniladigan bir nechta standart funksiyalarni ham o’z ichiga qamrab olgan:

- ***len(list):*** ro’yxat uzunligini (elementlari sonini) qiymat sifatida qaytaradi;
- ***sorted(list,[key]):*** tartiblangan ro’yxatni qiymat sifatida qaytaradi;

```python
users = ["Tom", "Bob"]

# ro`yxat oxiriga element qo`shish
users.append("Alice")  # ["Tom", "Bob", "Alice"]
# ro`yxatdagi ikkinchi o`ringa element qo`shish
users.insert(1, "Bill")  # ["Tom", "Bill", "Bob", "Alice"]
# element indeksini olish
i = users.index("Tom")
# indeks bo`yicha elementni ro`yxatdan o`chirish
removed_item = users.pop(i)  # ["Bill", "Bob", "Alice"]
# ro`yxatdagi oxirgi qiymatni olish
last_user = users[-1]
# ro`yxatdan oxirgi elementni o`chirish
users.remove(last_user)  # ["Bill", "Bob"]

print(users)
# ro`yxatning barcha elementlarini o`chirish users.clear()
```

2.1.10-rasm

**Elementni ro'yxatda mavjudligini tekshirish**. Odatda, *index*, *remove* kabi metodlardan foydalanilganda, ularning parametrlarida ko'rsatilgan element ro'yxatda mavjud bo'lmasa, istisno holati yuzaga keladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun, oldin ushbu elementning ro'yxatda mavjudligini tekshirish kerak bo'ladi. Buning uchun *in* kalit so'zidan foydalaniladi:

```python
companies = ["Microsoft", "Google", "Oracle", "Apple"] item = "Oracle"
 # o'chirish kerak bo'lgan element
if item in companies:
    companies.remove(item)

print(companies) # ['Microsoft', 'Google', 'Apple']
```

2.1.11-rasm

Yuqoridagi holatda, agar ro'yxatda *item* elementi mavjud bo'lsa, *item in companies* ifodasi *True* qiymat qaytaradi. Shuning uchun *if* shart ifodasi agar shu

element mavjud bo’lsagina navbatdagi amallarni bajaradi, natijada istisno holatining oldi olinadi.

***count()* metodi**. Ushbu metod orqali ro’yxatda biror element nechi marta qatnashganligi topiladi. Masalan:

```
nomlar = ["Anvar","Sobir","Sobir","Qosim"]
nom_soni = nomlar.count("Sobir")
print(nom_soni) #2
```

2.1.12-rasm

**Nazorat savollari**

1. *count()* funksiyasining ishlashini misollar bilan tushuntiring.
2.Elementni ro’yhatda mavjudligini qanday tekshirish mumkin?

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)
2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.
3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

13-mavzu: **Ro'yxat elementlarini tasodifiy tanlash**

**Mashg’ulot rejasi:**

1.Elementlarni tasodifiy tanlash.
2.Ro'yxatni saralash.
3.Ro'yxatni sonlar bilan to'ldirish.
4.Ro'yxatni satrga aylantirish

**Tartiblash**. Ro’yxatdagi elementlarni o’sib borish bo’yicha tartiblash uchun ***sort()*** metodi qo’llaniladi:

```
nomlar = ["Anvar","Sobir","Sobir","Qosim"]
nomlar.sort()
print(nomlar)  # ['Anvar', 'Qosim', 'Sobir', 'Sobir']
```

2.1.13-rasm

Agar teskari tartibda tartiblash kerak bo’lsa, ***sort()*** metodidan keyin ***reverse()*** metodidan foydalanish kifoya qiladi:

```
nomlar = ["Anvar","Sobir","Sobir","Qosim"]
nomlar.sort()
nomlar.reverse()
#nomlar.sort(reverse=True) deb ham ishlatish mumkin
print(nomlar)  # ['Sobir', 'Sobir', 'Qosim', 'Anvar']
```

2.1.14-rasm

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, tartiblashda ob`ektlar taqqoslanadi. Ob`ekt sifatida son kelsa muammo yo’q, o’sish yoki kamayib borish bo’yicha tartiblanadi. Lekin ob`ekt sifatida satr kelsa, u holda ular mos belgilari bo’yicha taqqoslanadi. Taqqoslashda belgilarning ASCII kodlari taqqoslanadi. Shuning uchun har qanday

katta registrga ega lotin yozuvidagi belgi kichik registrdagi lotin yozuvidagi belgidan kichik bo'ladi, masalan: "Abc" < "abc":

```
nomlar = ["anvar","Sobir","sobir","Qosim","tolib"]
nomlar.sort()
print(nomlar) # ['Qosim', 'Sobir', 'anvar', 'sobir', 'tolib']
```

2.1.15-rasm

Tartiblashda ***sort()*** metodi o'rniga standart ***sorted()*** funksiyasidan ham foydalanish mumkin bo'lib, uning quyidagi ikkita shakli mavjud:

```
nomlar = ["anvar","Sobir","sobir","Qosim","tolib"]
sorted_nomlar = sorted(nomlar, key = str.lower)
print(sorted_nomlar)
# ['anvar', 'Qosim', 'Sobir', 'sobir', 'tolib']
```

2.1.16-rasm

***sorted()*** funksiyasidan foydalanilganda qiymat sifatida ushbu funksiya tartiblangan elementlardan tashkil topgan yangi ro'yxatni qaytaradi, tartiblanayotgan ro'yxat esa o'zgarishsiz qoladi.

**Minimal va maksimal qiymatlar**. Python dasturlash tilida ***max***, ***min*** deb nomlanuvchi mos ravishda ro'yxatdan eng maksimal va eng minimal qiymatlarni topish uchun mo'ljallangan standart funksiyalari mavjud.

```
sonlar = [12, 45, 23, -35, 2]
print(min(sonlar))  # -35
print(max(sonlar))  # 45
```

2.1.17-rasm

**Ro’yxatlarni ko’chirish**. Ro’yxat – o’zgaruvchan (mutable) turga mansub bo’lib, agar ikkita o’zgaruvchi ayni bir ro’yxatga murojaat qilayotgan bo’lsa, u holda birining o’zgarishi ikkinchisiga ham ta`sir qiladi:

```
vil1 = ["Toshkent", "Xorazm", ]
vil2 = vil1 vil2.append('Buxoro')
print(vil1)  # ['Toshkent', 'Xorazm', 'Buxoro']
print(vil2)  # ['Toshkent', 'Xorazm', 'Buxoro']
```

2.1.18-rasm

Bu misolda har ikkala *vil1* va *vil2* o’zgaruvchilar yordamida ayni bir ro’yxatga murojaat bo’lgan. Shuning uchun *vil2* o’zgaruvchisi orqali ro’yxatga yangi element qo’shilganda mos ravishda *vil1* ham o’zgargan. Bu holat yuzaki ko’chirish (*shallow copy*) deyiladi. Albatta ro’yxatlarni ko’chirganda ikkita alohida ro’yxat hosil qiladigan tarzda ham ko’chirish (*deep copy*) mumkin. Buning uchun ichki ***copy*** moduldagi *deepcopy()* metodidan foydalaniladi:

```
import copy
vil1 = ["Toshkent", "Xorazm", ]
vil2 = copy.deepcopy(vil1)
vil2.append('Buxoro')
# ikkita alohida ro`yxat hosil bo`ldi
print(vil1)  # ['Toshkent', 'Xorazm']
print(vil2)  # ['Toshkent', 'Xorazm', 'Buxoro']
```

2.1.19-rasm

**Ro’yxat qismini ko’chirish**. Agar butun bir ro’yxatni emas, balki uning bir qismini ko’chirish zarur bo’lsa, u holda maxsus sintaksisdan foydalaniladi. Ushbu sistaksis quyidagi shakllarda  qo’llaniladi: ***list(:end)*** - *end* parametri orqali ro’yxatning qaysi elementigacha ko’chirish

kerakligini bildiruvchi indeks nomeri beriladi; ***list(start:end)*** – *start*, *end* parametrlar orqali ro'yxatning *start* dan *end* gacha

bo'lgan elementlarini ko'chirish kerakligini bildiruvchi indeks nomerlari beriladi; ***list(start:end:step)*** – *start*, *end*, *step* parametrlar orqali ro'yxatning *start* dan *end* gacha bo'lgan elementlarini *step* qadam bilan ko'chirish kerakligini bildiruvchi qiymatlar beriladi. *step* parametrning kelishuv bo'yicha qiymati 1 ga tengdir.

```
vil = ["Toshkent", "Xorazm", 'Buxoro', 'Navoi', 'Jizzax']
vil1 = vil[:2]
print(vil1)  # ['Toshkent', 'Xorazm']
vil2 = vil[2:4]
print(vil2)  # ['Buxoro', 'Navoi']
vil3 = vil[1:5:2]
print(vil3)  # ['Xorazm', 'Navoi']
```

2.1.20-rasm

**Ro'yxatlarni birlashtirish**. Ro'yxatlarni birlashtirish uchun (+) amali qo'llaniladi:

```
vil1 = ["Toshkent", "Xorazm", 'Buxoro']
vil2 = ['Navoi', 'Jizzax']
vil = vil1 + vil2
print(vil)
```

2.1.21-rasm

**Ichma – ich joylashgan ro'yxatlar**. Ro'yxat elementlari son, satr kabi oddiy turdagi qiymatlargina bo'lib qolmay, balki ro'yxatni ham ifodalashi mumkin. Odatda bunday ro'yxatlardan jadvallar bilan ishlashda ko'p foydalaniladi. Ushbu holatda tashqi ro'yxatning har bir elementi jadvaldagi bitta qatorni ifodalovchi ro'yxatdan iborat bo'ladi:

```python
ishchilar = [
    ["Tolib", 33],
    ["Akmal", 30],
    ["Botir", 27] ]

print(ishchilar[0])  # ["Tolib", 33]
print(ishchilar[0][0])  # Tolib
print(ishchilar[0][1])  # 33
```

2.1.22-rasm

Bu erda ichki ro’yxatni elementiga murojaat qilish uchun [][] indekslar juftligidan foydalanilgan. Xususan, *ishchilar[0][1]* – birinchi ichki ro’yxatning ikkinchi elementiga murojaat bo’lgan.

Ro’yxatga elementlarni qo’shish, o’chirish, o’zgartirish kabi jarayonlar oddiy ro’yxatlardagi kabi amalga oshiriladi:

```
ishchilar = [
    ["Tolib", 33],
    ["Akmal", 30],
    ["Botir", 27] ]

print(ishchilar[0])  # ["Tolib", 33]
print(ishchilar[0][0])  # Tolib
print(ishchilar[0][1])  # 33
# ro`yxat yaratish
ishchi = list()
ishchi.append("Rustam")
ishchi.append(21)
# Tashqi ro`yxatga yaratilgan ro`yxatni qo`shish
ishchilar.append(ishchi)
print(ishchilar[-1])  # ["Rustam", 21]
# Tashqi ro`yxatning oxirgi elementiga element qo`shish
ishchilar[-1].append("+998909737066")
print(ishchilar[-1])  # ['Rustam', 21, '+998909737066']
# tashqi ro`yxatning oxirgi elementining oxirgi elementini
# o`chirish
ishchilar[-1].pop()
print(ishchilar[-1])  # ["Rustam", 21]
# tashqi ro`yxatning oxirgi elementini o`chirish
ishchilar.pop(-1)
# birinchi elementni o`zgartirish
ishchilar[0] = ["Sobir", 18]
print(ishchilar) # [['Sam', 18],['Akmal', 30],['Botir', 27]]
```

2.1.23-rasm

Murakkab ro’yxatlar elementlariga murojaat ichma – ich joylashgan takrorlash operatorlari orqali amalga oshirilishi mumkin:

```python
ishchilar = [
    ["Tolib", 33],
    ["Akmal", 30],
    ["Botir", 27] ]
 for ishchi in ishchilar:
    for i in ishchi:
        print(i, end="|")
# Konsolga quyidagi ma`lumotlar chiqariladi
# Tolib|33|Akmal|30|Botir|27|
```

2.1.24-rasm

**Nazorat savollari**

1. Ro’xatning oxirgi elementini o’chirishning bir nechta usullarini misollar bilan tushuntiring.
2.Berilgan N(N>10) ta elementli ro’yxatni kamayish tartibida tartiblovchi, so’ngra uning 4, 7 va 9-elementlarini o’chiruvchi dastur tuzing?
3.Sizga A ro’yxat berilgan. *deepcopy()* metodi va ro’yxatni ko’chirishdan foydalanib, A ro’yxatning juft indexli elementlaridan iborat B ro’yxatni yasang va uni o’sish tartibida tartiblab, A ning dastlabki va B ning oxirgi qiymatini chiqaring.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)
2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**14-mavzu: Kortej va to’plamlar bilan ishlash**

**Mashg’ulot rejasi:**

1.Kortej funksiyalari bilan ishlash.
2.To’plamlar.
3.Itertools moduli.
4.Ketma-ket elementlarni filtirlash

Kortej (tuple) elementlar ketma-ketligini ifodalovchi, ko’p jihatlari bo’yicha ro’yxatga o’xshaydigan, lekin undan farqli ravishda o’zgarmaydigan (immutable) tur hisoblanadi. Shuning uchun kortejga yangi element qo’shish, undan elementni o’chirish yoki o’zgartirish kiritishga ruxsat etilmaydi.

Kortejni hosil qilish uchun oddiy qavs “(, )” dan foydalanib, unda elementlar vergul bilan ajratilgan tarzda joylashtiriladi:

```
user = ("Akmal", 21)
print(user) # ('Akmal', 21)
```

2.2.1-rasm

Bundan tashqari kortejni aniqlash uchun elementlar ketma – ketligi vergul bilan ajratilgan holda oddiy qavslarsiz ham amalga oshirsa bo’ladi:

```
user = ("Akmal", 21)
print(user) # ('Akmal', 21)
```

2.2.2-rasm

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, kortej faqat bitta elementdan tashkil topsa ham vergul ishlatiladi:

```
user = "Akmal",
print(user) # ('Akmal',)
```

2.2.3-rasm

Ro’yxat asosida kortej hosil qilish uchun maxsus ***tuple*** funksiyasidan foydalaniladi va uning argumentiga qiymat sifatida ro’yxat beriladi:

```
user_list = ["Yusuf", 'Tolib', 'Rustam']
user_tuple = tuple(user_list)
print(user_tuple)  # ('Yusuf', 'Tolib', 'Rustam')
```

2.2.4-rasm

Kortej elementlariga murojaat xuddi ro’yxatlardagi kabi indekslari orqali amalga oshiriladi. Indekslar kortej boshiga nisbatan 0 dan, kortej oxiriga nisbatan -1 dan boshlanadi:

```
users = ("Yusuf", 'Qodir', 'Erkin', 'Oybek')
print(users[0]) # Yusuf
print(users[2]) # Erkin
print(users[-1])  # Oybek
print(users[1:3])  # ('Qodir', 'Erkin')
```

2.2.5-rasm

Kortej o’zgarmaydigan tur bo’lganligi sababli uning elementini o’zgartirib bo’lmaydi. Masalan: *users[0] = “Rahim”* kabi kod yozilsa, Python interpretatori xatolik to’g’risida xabar chiqaradi.

Kortej elementlarini, ularning soniga mos o’zgaruvchilarga birdaniga yuklash ham mumkin:

```
users = ("Yusuf", 'Qodir', 'Erkin',)
a, b, c = users
print(a)  # Yusuf
print(b)  # Qodir
print(c)  # Erkin
```

2.2.6-rasm

Kortejlarning bunday xususiyati ayniqsa funksiyalar bilan ishlashda juda foydali hisoblanadi. Masalan, funksiya natija sifatida birdan ortiq qiymat qaytarsa, aslida kortej turidagi bitta qiymat qaytarayotgan bo’ladi. Funksiyadan qaytgan qiymatlarni bir nechta o’zgaruvchilarga yuklash orqali, alohida bir - biriga bog’liq bo’lmagan qiymatlarga ega bo’linadi:

```
def get_user():
    name = "Yusuf"
    age = 33
    is_married = True
    return name, age, is_married

user = get_user()
print(user[0])  # Yusuf
print(user[1])  # 33
print(user[2])  # True

# yoki alohida o`zgaruvchilarga yuklanadi
name, age, ismarried = get_user()
print(name)  # Yusuf
print(age)  # 33
print(ismarried)  # True
```

2.2.7-rasm

***len()*** funksiyasi orqali kortejning uzunligi (elementlari soni) topiladi:

```python
user = ("Erkin", 30, True)
print(len(user))  # 3
```

2.2.8-rasm

Kortej elementlariga *for* va *while* takrorlash operatorlari orqali murojaat quyidagicha amalga oshiriladi:

*for* orqali

```python
user = ("Erkin", 30, True)
 for u in user:
    print(u)
```

2.2.9-rasm

*while* orqali

```python
user = ("Erkin", 30, True)
i=0
while i < len(user):
  print(user[i])
  i +=1
```

2.2.10-rasm

Kortejda biror elementning mavjudligini xuddi ro'yxatlardagi kabi ***in*** operatoridan foydalanib amalga oshiriladi:

```
user = ("Erkin", 30, True)
if 'Erkin' in user:
    print("Foydalanuvchining ismi Erkin")
```

2.2.11-rasm

**Murakkab kortejlar**. Kortej o’z ichiga boshqa kortejlarni element sifatida qamrab olsa, bunday kortejlar murakkab kortejlar hisoblanadi:

```
davlatlar = (("O`zbekiston", 33.8,(
        ("Toshkent", 2.65),
        ("Samarqand", 1.1),
        ("Urganch", 0.223))
    ),
    ("Qozog`iston", 17.5, (
        ("Nur Sultan", 1.1),
        ("Olmaota", 2.3)
        )
    ))
for davlat in davlatlar:
    nomi,aholi_soni,shaharlar = davlat
    print(nomi,'-',aholi_soni)
    print("Katta shaharlari:")
    for shahar in shaharlar:
        print(shahar[0],'-',shahar[1])
```

2.2.12-rasm

Bu erda *davlatlar* korteji ikki elementdan tashkil topgan bo’lib, ular ham kortejlardir va davlat nomi, aholisi, katta shaharlari to’g’risidagi ma`lumotlarni ifodalaydi. O’z navbatida shaharlar ham yana kortejlardan tashkil topgan bo’lib, ularning har bir elementi shahar nomi va aholisini ifodalaydigan kortejdan tashkil topgan. Xullas, jami ichma-ich joylashgan 4 ta kortejdan iborat berilganlarning murakkab strukturasiga misol keltirilgan.

**Nazorat savollari**

1.Kortej nima?

2. *Kortej*ning ro’yxatdan farqini misollar bilan birga tushuntiring.

3.Ro’xatning oxirgi elementini o’chirishning bir nechta usullarini misollar bilan tushuntiring.

4.Bir nechta murakkab Kortejlarni yarating va uning elementlarini ekranga chop etuvchi dastur yozing.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

## 15-mavzu: Lug’at yaratish va ular bilan ishlash

**Mashg’ulot rejasi:**

1.Lug'at yaratish.
2.Lug'atlar ustida amallar bajarish.
3.Lug'at elementlarini takrorlash.
4.Lug'atlar bilan ishlash usullari.
5.Lug'at generatorlari.

Python dasturlash tilida ro’yxatlar va kortejlar bilan bir qatorda lug’atlar (dictinary) deb nomlanuvchi berilganlarning ichki tuzilmasi mavjud. Lug’atlar ham xuddi ro’yxatlar kabi elementlar to’plamini saqlaydi. Lug’atdagi har bir element unikal kalitga ega bo’ladi va unga biror bir qiymat bog’lanadi.

Lug’at quyidagicha sistaksis bo’yicha aniqlanadi:

*dictionary = { kalit1:qiymat1, kalit2:qiymat2, ....}*

Quyida lug’atlarga misol keltirilgan:

```
users = {1: "Tom", 2: "Bob", 3: "Bill"}

elements = {"Au": "Oltin", "Fe": "Temir", "H": "Vodorod","O": "Kislorod"}
```

2.3.1-rasm

Bu yerda *users* ro’yxatida kalit sifatida son, qiymat sifatida satr qo’llanilgan. *element* ro’yxatida esa qiymat sifatida ham kalit sifatida ham satr ishlatilgan.

Lekin kalitlar va qiymatlar bir turga mansub bo’lishi shart emas. Ular har xil turdagi qiymatlar bo’lishi mumkin:

```
objects = {1: "Tom", "2": True, 3: 100.6}
```

2.3.2-rasm

**Ro’yxatlar yordamida lug’at xosil qilish**. Lug’atlar tuzilmaviy jihatidan ro’yxatlarga o’xshamasada, lekin ba`zi bir maxsus ro’yxatlar asosida *dict()* funkuyasi orqali ro’yxatlar hosil qilish mumkin. Buning uchun ro’yxat o’z navbatida ro’yxatlar to’plamidan tashkil topgan bo’lishi kerak. Ichki ro’yxatlar ikkita elementlardan tashkil topishi shart bo’lib, mos ravishda birinchi element kalitga, ikkinchi element qiymatga akslantiriladi:

```
users_list = [["909837022", "Tolib"],
    ["909939343", "Bobur"],     ["903943493", "Alibek"] ]
users_dict = dict(users_list)
print(users_dict)
    # {'909837022': 'Tolib', '909939343':'Bobur', '903943493': 'Alibek'}
```

2.3.3-rasm

Xuddi shu tarzda kortejlarni ham lug'atlarga aylantirish mumkin. Buning uchun ikki o'lchamli kortejning ichki kortejlari o'z navbatida ikkitadan elementdan tashkil topgan bo'lishi shart:

```
users_tuple = ( ("909837022", "Tolib"),
    ("909939343", "Bobur"),     ("903943493", "Alibek") )
users_dict = dict(users_tuple)
print(users_dict)
# {'909837022': 'Tolib', '909939343':'Bobur', '903943493': 'Alibek'}
```

2.3.4-rasm

**Lug'at metodlari.**

**Dict.copy()**-lug`at nusxasini qaytaradi.

Classmethod **dict.fromkeys(seq[, value])**- Seq dan kalitni  va Value qiymatlariga ega bo`lgan lug`atni yaratadi.

**Dict.get(key[, default])**-kalit qiymatini qaytaradi, lekin u bo`lmasa xatolik beradi, default (jimlikda None) qaytaradi.

**Dict.items()**-juftliklarni qaytaradi(kalit, qiymat)

**Dict.keys()**- lug`atdagi kalitlarni qaytaradi

**Dict.pop(key[default])**-kalitni yo`qotib qiymatni qaytaradi. Agarda kalit bo`lmasa defaultni qaytaradi.

**Dict.popitem()-** juftlikni o`chirib qaytaradi (kalit, qiymat). Agarda lug`at bo`sh bo`lsa KeyError istisnoni chaqiradi. Esingizda tursin lug`atlar tartibli emas.
**Dict.setdefault(key [, default])-**kalit qiymatni qaytaradi, lekin u bo`lmasa xatolik bermaydi, default qiymatga ega kalitni yaratadi (jimlikda None).

**Dict.update([other])-** other dan juftliklarni (kalit, qiymat) kiritib lug`atni to`ldiradi.

Mavjud bo`lgan kalitlar qaytadan yoziladilar. None (eski lug`at) qaytaradi.

**Dict.values()-**lug`atdagi qiymatni qaytaradi.

**Lug'at elementini o'zgartirish.** Lug'at elementiga murojaat qilish uning kaliti yordamida amalga oshiriladi:

*dictionary*[*kalit*]

Masalan lug'at elementiga murojaat qilish va uni o'zgartirish quyidagicha amalga oshiriladi:

```
users = {
    "Bir": "Tolib",
    "Ikki": "Bobur",
    "Uch": "Alisher"  }
# Lug'atning "Bir" kalitli elementiga murojaat uchun
print(users["Bir"])  # Tolib
# Lug'atdagi "Uch" kalitli element qiymatini o'zgartiramiz
users["Uch"] = "Baxtiyor"
print(users["Uch"])  # Baxtiyor
```

2.3.5-rasm

Lug'at elementiga kaliti orqali qiymat berganda shunday kalit lug'atda mavjud bo'lmasa, u holda lug'atga yangi element qo'shiladi. Masalan, yuqoridagi misolda *users*[*"To'rt"*] = *"Ibrohim"* tarzida yangi element qo'shishimiz mumkin, Chunki lug'atda *"To'rt"* kalitli element mavjud emas.

Lekin, lug’atda mavjud bo’lmagan kalit orqali uning elementiga murojaat qilinganda, Python interpretatori *KeyError* turidagi istisno xatoligi yuzaga kelganligi haqida xabar chiqaradi. Masalan, yuqoridagi misol uchun *user = users*[*“Besh”*] kabi ishlatsak xatolik ro`y beradi. Bunday istisno xalotlarning oldini olish uchun Python dasturlash tilida ***Kalit in Lug’at*** ifodasidan foydalaniladi. Ushbu ifoda agarda shunday kalitli element lug’atda mavjud bo’lsa *True* qiymat, aks holda *False* qiymat qaytaradi, masalan:

```
bahoDict = {"A": 5, "B": 4, "C": 3}
key = "D"
if key in bahoDict:
    baho = bahoDict[key]
    print(baho)
else:
    print("Element topilmadi")
# Javob: Element topilmadi
```

2.3.6-rasm

Shu bilan birga, lug’atning biror elementini olish uchun *get* metodidan ham foydalanish mumkin bo’lib u ikki xil shaklda qo’llaniladi:

- *get*(*key*) – lug’atning *key* kalitli elementni qaytaradi. Agar lug’atda *key* kalitli element mavjud bo’lmasa *None* qiymati qaytariladi.
- *get(key, default)* - lug’atning *key* kalitli elementni qaytaradi. Agar lug’atda *key* kalitli element mavjud bo’lmasa *default* qiymati qaytariladi.

Masalan:

```python
bahoDict = {"A": 5, "B": 4, "C": 3}
key = "A"
baho = bahoDict.get(key)
print(baho)  # 5
# yoki
key = "D"
baho = bahoDict.get(key, "Noma'lum qiymat")
print(baho)  # Noma'lum qiymat
```

2.3.7-rasm

**Lug’atdan elementni o’chirish.** Lug’atdan kalit orqali elementni o’chirish uchun *del* operatoridan foydalaniladi:

```python
bahoDict = {"A": 5, "B": 4, "C": 3, "D": 2}
print(bahoDict) # {'A': 5, 'B': 4, 'C': 3, 'D': 2}

del bahoDict["C"]
print(bahoDict) # {'A': 5, 'B': 4, 'D': 2}
```

2.3.8-rasm

Shuni alohida ta‟kidlash lozimki, agar lug’atda bunday kalit mavjud bo`lmasa *KeyError* istisno xatoligi yuzaga keladi. Ushbu xatolikni oldini olish uchun dastlab bunday kalit lug’atda bor yoki yo’qligini tekshirish tavsiya qilinadi:

```python
bahoDict = {"A": 5, "B": 4, "C": 3, "D": 2}
baho = "A"
if baho in bahoDict:
  son = bahoDict[baho]
  del bahoDict[baho]
  print(son, "o'chirildi")
else:
  print("Element topilmadi")
# Javob: 5 o'chirildi
```

2.3.9-rasm

O’chirishning boshqa bir usuli – *pop*() metodi orqali amalga oshiriladi. U ikki xil shaklda qo’llaniladi:

*pop*(*key*) – *key* kaliti bo’yicha elementni o’chiradi va qiymat sifatida o’chirilgan elementni qaytaradi. Agar berilgan kalit bo’yicha element topilmasa, *KeyError* istisno holati yuzaga keladi; *pop*(*key, default*) – *key* kaliti bo’yicha elementni o’chiradi va qiymat sifatida o’chirilgan elementni qaytaradi. Agar berilgan kalit bo’yicha element topilmasa, *default* qiymati qaytariladi.

```python
bahoDict = {"A": 5, "B": 4, "C": 3, "D": 2}
key = "A"
baho = bahoDict.pop(key)
print(baho)  # 5
# ikkinchi marta yana shu kalit bo`yicha o`chirishga urinamiz
baho2 = bahoDict.pop(key, "Bunday baho mavjud emas!")
print(baho2)  # Bunday baho mavjud emas!
```

2.3.10-rasm

Agar lug’atdagi barcha elementlarni o’chirish talab qilinsa, *clear*() metodidan foydalanish mumkin:

```
bahoDict = {"A": 5, "B": 4, "C": 3, "D": 2}
# Lug'atning barcha elementlarini ekranga chiqaramiz
print(bahoDict)  # {'A': 5, 'B': 4, 'C': 3, 'D': 2}
bahoDict.clear()
# clear metodini qo'llagandan so'ng yana
# lug'atning barcha elementlarini ekranga chiqaramiz
print(bahoDict)  # {}
```

2.3.11-rasm

**Lug’atlarni ko’chirish va birlashtirish.** Lug’atlarni ko’chirish uchun *copy()* metodidan foydalanilib, qiymat sifatida ushbu lug’atning elementlaridan tashkil topgan boshqa lug’at hosil qilinadi, masalan:

```
l = {"ismi": "Sardor", "yoshi": 34}
l2 = l.copy()
print(l)  # {'ismi': 'Sardor', 'yoshi': 34}
print(l2)  # {'ismi': 'Sardor', 'yoshi': 34}
```

2.3.12-rasm

Lug’atlarni birlashtirish uchun *update()* metodidan foydalaniladi:

```
l1 = {"ismi": "Sardor", "yoshi": 34}
l2 = {"kursi": 1, "yo`nalishi": "IAT"}
l1.update(l2)
print(l1)  # {'ismi': 'Sardor', 'yoshi': 34, 'kursi': 1,'yo`nalishi': 'IAT'}
print(l2)  # {'ismi': 'Sardor', 'yoshi': 34}
```

2.3.13-rasm

Yuqoridagi holatda *l2* tarkibi o’zgarishsiz qoladi va *l1* lug’at tarkibiga boshqa lug’at elementlari qo’shiladi.

**Lug’at elementlariga murojaat.** Lug’at elementlariga murojaat uning kaliti orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa *for* operatori orqali lug’at elementlarini uning kaliti orqali olish juda qulay hisoblanadi:

```
talabalar = {
    "+99890123": "Tolmas",
    "+99890124": "Bobur",     "+99890125": "Alisher" }
for tal in talabalar:
   print(tal, " - ", talabalar[tal])
```

2.3.14-rasm

Javobga quyidagi natija chiqariladi:

+99890123 - Tolmas

+99890124 - Bobur

+99890125 - Alisher

bu erda *for* operatoridagi *t* o’zgaruvchiga ketma – ket lug’at kaliti qiymatlari yuklanadi (chapdan o’ngga qarab) va shu kalit orqali lug’at elementiga murojaat amalga oshiriladi.

Lug’at elementlariga murojaat qilishning yana bir usuli *items*() metodini qo’llash orqali amalga oshiriladi. Yuqoridagi dastur kodi *items()* metodi orqali quyidagicha yoziladi va ayni bir xil natijaga erishiladi:

```
talabalar = {
    "+99890123": "Tolmas",
    "+99890124": "Bobur",     "+99890125": "Alisher" }
for nomer, ism in talabalar.items():
    print(nomer, " - ", ism)
```

2.3.15-rasm

*items*() metodi qiymat sifatida kortejlar to’plamini qaytaradi. Har bir kortej elementi kalit (*nomer*) va qiymatlar (*ism*) juftligidan tashkil topadi.

Lug’atdan faqat kalitlarini olish uchun *keys*() va faqat qiymatlarini olish uchun *values*() metodlaridan foydalaniladi, masalan:

```
talabalar = {
    "+99890123": "Tolmas",
    "+99890124": "Bobur",
    "+99890125": "Alisher" } # lug'atning kalitlariga murojaat
print("Kalitlar:")
for kalit in talabalar.keys():
    print(kalit, end='; ')
# lug'atning qiymatlariga murojaat
print("\n Qiymatlar:")
for qiymat in talabalar.values():
    print(qiymat, end='; ')
```

2.3.16-rasm

Ushbu dastur ishga tushirilganda quyidagi javob ekranga chiqariladi:

*Kalitlar:*

*+99890123; +99890124; +99890125;*

*Qiymatlar:*

*Tolmas; Bobur; Alisher;*

**Kompleks (murakkab) lug’atlar**. Lug’atlar faqatgina *int*, *str*, *float*, *bool* kabi oddiy turlarga oid berilganlardangina emas, balki *list*, *tuple*, *set*, *dict* kabi murakkab tuzulmaviy berilganlardan ham tashkil topishi mumkin:

```
loginData = {     "Zafar":
        {
            "email": "zafar@nuu.uz",
            "tel": "+99890933",
            "manzil": "Univer ko`chasi 4"
        },
    "Rustam":
        {
            "email": "rustam@nuu.uz",
            "tel": "+998902222",
            "manzil": "Dekanat ko`chasi 105"
        } }
print(loginData)
```

2.3.17-rasm

Yuqorida keltirilgan misolda *loginData* lug'ati (tashqi lug'at) o'z navbatida boshqa lug'atlar (ichki lug'atlar) dan tashkil topgan. Buday hollarda ichki lug'atni elementlariga quyidagi tarzda murojaat qilinadi:

```
lData = loginData["Zafar"]["tel"]
print(lData)
```

2.3.18-rasm

lug'atda mavjud bo'lmagan kalit orqali uning elementiga murojaat amalga oshirilganda Python interpretatori *KeyError* turidagi istisno xatoligini yuzaga keltiradi:

```
lData = loginData["Zafar"]["telegram"] #KeyError
```

2.3.19-rasm

bu erda “telegram” kalit so’zi mavjud emas. Shuning uchun istisno xatoligi ro’y berdi. Bunday xatoliklarning oldini olish uchun dastlab kalitning lug’atda bor yoki yo’qligini tekshirish tavsiya qilinadi:

```
key = "telegram"
if key in loginData["Zafar"]:
    print(loginData["Tom"]["telegram"])
else:
    print("telegram kaliti topilmadi")
```

2.3.20-rasm

Umuman olganda, murakkab lug’atlar (ichma – ich joylashgan) ustuda amallar oddiy lug’atlardagi kabi amalga oshiriladi.

**Nazorat savollari**

1.Pythonda Lug’atlardan qanday foydalaniladi? Misollar bilan tushuntirib bering.
2. Berilgan N natural son bir xonali bo’lsa uni matn ko’rinishida, aks holda “*Bunday son lug’atda mavjud emas”* yozuvini ekranga chiqarish dasturini lug’atdan foydalanib tuzing. *Masalan, N=1 bo’lsa “bir” chiqarilishi kerak.*
3.Berilgan ro’yxatning 2 marta qatnashgan elementlarini ekranga chop etuvchi dasturni lug’atlardan foydalanib tuzing.
*{Maslahat: Agar ro’yxat qiymati lug’atda mavjud bo’lmasa lug’atga uni 1 qiymatni bergan holda qo’shamiz,aks holda lug’atdagi qiymati 1 ga oshiriladi. Natijaga lug’atning qiymati 2 ga teng bo’lgan elementlarining kalitlari chiqariladi.}*

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд.,

перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)
2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.
3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**16-mavzu: Sana va vaqt bilan ishlash**

**Mavzu rejasi:**

1.Joriy sana va vaqtni olish.
2.Sana va vaqtni formatlash.
3.Datetime moduli: sana va vaqtni manipulyatsiya qilish.

Sana va vaqt bilan ishlaydigan quyidagi asosiy funksiyalar *datetime* modulida jamlangan:

- date; □ time;
- datetime.

### date sinfi

Sana bilan ishlash uchun *datetime* modulida aniqlangan *date* sinfidan foydalaniladi. *date* sinfi obyektini yaratish uchun uchta parameter: yil, oy va kun parametrlarini qabul qiladigan *date* sinfi konstruktoridan foydalaniladi:

```
date(year, month, day)
```

7.1.1-rasm

Masalan, qandaydir sana yaratamiz:

```
import datetime

yesterday = datetime.date(2017, 5, 2)
print(yesterday)  # 2017-05-02
```

7.1.2-rasm

*today()* metodidan foydalanish orqali joriy sanani olish mumkin:

```
from datetime import date

today = date.today()
print(today)
print("{}.{}.{}".format(today.day, today.month, today.year))
```

7.1.3-rasm

*day*, *month* va *year* xususiyatlari orqali mos ravishda kun, oy va sanani olish mumkin. ***time* sinfi**

Vaqt bilan ishlash uchun time sinfidan quydagicha foydalaniladi:



```
time([hour] [, min] [, sec] [, microsec])
```

7.1.4-rasm

Konstruktor soat, minut, sekund va mikro sekundlarni ketma-ket ravishda qabul qiladi va bu parametrlar shart bo'lmagan parametrlardir. Agarda birorta parameter konstruktorda berilmasa, u holda kelishuv bo'yicha nol qiymat olinadi.

```
from datetime import time

current_time = time()
print(current_time)  # 00:00:00

current_time = time(16, 25)
print(current_time)  # 16:25:00

current_time = time(16, 25, 45)
print(current_time)  # 16:25:45
```

7.1.5-rasm

## datetime sinfi

*datetime* sinfi bir vaqtning o'zida sana va vaqt bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. *datetime* sinfi obyektini yaratish uchun quyidagi konstruktor ishlatiladi:

```
datetime(year, month, day [, hour] [, min] [, sec] [, microsec])
```

7.1.6-rasm

Birinchi uchta parametr yil, oy va kunlar zaruriy parametrlar hisoblanadi, qolgan uchtasi esa shart bo'lmagan, hamda, kelishuv bo'yicha ular nol qiymat oladi.

```python
from datetime import datetime

deadline = datetime(2017, 5, 10)
print(deadline)  # 2017-05-10 00:00:00

deadline = datetime(2017, 5, 10, 4, 30)
print(deadline)  # 2017-05-10 04:30:00
```

7.1.7-rasm

Joriy vaqtni va sanani olish uchun *now()* metodidan foydalaniladi.

```python
from datetime import datetime

now = datetime.now()
print(now)
print("{}.{}.{}  {}:{}".format(now.day, now.month, now.year,
now.hour, now.minute))
print(now.date())
print(now.time())
```

7.1.8-rasm

*day*, *month*, *year*, *hour*, *minute*, *second* parametrlari orqali sana va vaqtning alohida qiymatlarini olish mumkin. *date()* va *time()* metodlari orqali esa mos ravishda alohida sana va vaqtni olish mumkin.

### Satrdan sanaga o’tkazish

*datetime* sinfida *strptime()* metodi mavjud bo’lib, u satr ko’rinishidagi berilgani vaqtga o’tkazadi. Bu metod ikkita parametr qabul qiladi:

```
strptime(str, format)
```

7.1.9-rasm

Birinchi *str* parametri sana va vaqtning satr ko'rinishi, hamda ikkinchi *format* parametri satrdagi sana va vaqt orasi qanday ajratilganligi formati.

Formatni aniqlash uchun quyidagi kodlarni ishlatamiz:

- %d – oy kuni son ko'rinishida;
- %m – oyning tartib raqami;
- %y – yil ikkita raqamdan iborat;
- %Y – yil to'rta raqamdan iborat;
- %H – soat 24 soatlik formatda;
- %M – minut;
- %S – sekund.

Har xil formatlarga misol:

```
from datetime import datetime
deadline = datetime.strptime("22/05/2017", "%d/%m/%Y")
print(deadline)  # 2017-05-22 00:00:00

deadline = datetime.strptime("22/05/2017 12:30", "%d/%m/%Y %H:%M")
print(deadline)  # 2017-05-22 12:30:00
deadline = datetime.strptime("05-22-2017 12:30", "%m-%d-%Y %H:%M")
print(deadline)  # 2017-05-22 12:30:00
```

7.1.10-rasm

**Nazorat savollari**

1.Pythonda *datetime* sinfining mohiyatini tushuntiring?

2.Pythonda *string* tipdan qanday qilib vaqt formatiga o’tqazilishini tushuntiring?

3.Pythonda vaqt formatlarining afzalliklarini tushuntiring?

4.Pythonda datetime sinfi orqali shu oyning oxirgi sanasi qaysi kun ekanligini aniqlovchi dastur tuzing?

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

## 17-mavzu: Kalendar moduli va uning imkoniyatlari

**Mavzu rejasi:**

1.Kalendar moduli: kalendarni ko'rsatish va undan foydalanish xususiyatlari.
2.Kodni (parchalarini) bajarish vaqtini o'lchash.

### Sana va vaqtni formatlash

Ushbu sinflar doirasida sana va vaqt obyektlarini formatlash uchun *strftime(format)* metodi mavjud. Bu metod formatlashni ko’rsatuvchi bitta parametr qabul qiladi.

Formatlashni amalga oshirishimiz uchun quyida aniqlangan formatlash kodlaridan birini ishlatish mumkin:

- %a – hafta kuni uchun abbreviatoriya. Masalan, Wed – Wednesday so’zidan (kelishuv bo’yicha ingiliz tilidagi so’zlar ishlatiladi);

- %A – hafta kun to’liq, masalan, Wednesday;
- %b – oy kuni uchun abbreviatoriya. Masalan, Oct (October so’zining qisqartmasi);
- %B – oy nomi to’liq, masalan, October;
- %d – oy kuni, nol qo’shilgan, masalan, 01;
- %m – oy raqami, nol qo’shilgan, masalan, 05;
- %y – yil ikkita raqamdan iborat;
- %Y – yil to’rta raqamdan iborat;
- %H – soat 24 soatlik formatda, masalan, 13
- %I – soat 12 soatlik formatda, masalan, 01
- %M – Minut;
- %S – sekund.
- %f – mikrosekund;
- %p - AM/PM ko’rsatgich;
- %c – sana va vaqt, joriy mahalliy bo’yicha formatlangan;
- %x – sana, joriy mahalliy bo’yicha formatlangan;  %X - vaqt, joriy mahalliy bo’yicha formatlangan.

Har xil formatlar:

```
from datetime import datetime
now = datetime.now()
print(now.strftime("%Y-%m-%d"))
print(now.strftime("%d/%m/%Y"))
print(now.strftime("%d/%m/%y"))
print(now.strftime("%d %B %Y (%A)"))
print(now.strftime("%d/%m/%y %I:%M"))
```

7.2.1-rasm

## Sana va vaqtlarni qo’shish va ayirish

Sana va vaqt bilan ishlashda ma’lum bir vaqt oraliqdagi sanani qo’shish yoki ayirish zarurati tug’uladi. *datetime* modulida bu ishlarni amalga oshirish uchun maxsus *timedelta* sinfi aniqlangan. Ushbu sinf ma’lum bir vaqt oralig’dani aniqlaydi.

Vaqt oralig’ini aniqlash uchun *timedelta* sinfi konstruktori quyidagicha ishlatiladi:

```
timedelta([days] [, seconds] [, microseconds] [, milliseconds]
[,minutes] [, hours] [, weeks])
```

7.2.2-rasm

Konstrutorga mos ketma-ketlikda kunlar, sekundlar, mikrosekundlar, milisekundlar, minutlar, soatlar va haftalarni berish mumkin.

Bir qancha oraliqlarni aniqlaymiz:

```
from datetime import timedelta

three_hours = timedelta(hours=3)
print(three_hours)  # 3:00:00
```

7.2.3-rasm

*timedelta* obyektini ishlatish orqali qo’shish va ayirish amallarini bajarishimiz mumkin. Masalan, ikki kundan keyingi sanani olamiz:

```
from datetime import timedelta, datetime

now = datetime.now()
print(now)
two_days = timedelta(2)
in_two_days = now + two_days
print(in_two_days)
```

7.2.4-rasm

Yoki 10 soatu 15 minut oldin qanday vaqt bo’lganini aniqlaymiz, buning uchun joriy vaqtdan 10 soatu 15 minutni ayrish kerak:

```
from datetime import timedelta, datetime

now = datetime.now()
till_ten_hours_fifteen_minutes = now - timedelta(hours=10, minutes=15)
print(till_ten_hours_fifteen_minutes)
```

7.2.5-rasm

### timedelta xususiyatlari

*timedelta* sinfi bir qancha xususiyatlarga ega bo’lib, ular orqali vaqt oraliqlarini olish mumkin:

- days – kunlar miqdorini qaytaradi;
- seconds – sekundlar miqdorini qaytaradi;
- microseconds – mikrosekundlar miqdorini qaaytaradi.

Bundan tashqari umimiy sekundlar miqdorini qaytaruvchi *total_seconds()* metodi ham mavjud, hamda bunga kunlar, sekundlar va mikrosekundlar kiradi.

Masalan, ikki sana oralig'idagi vaqtni aniqlaymiz:

```
from datetime import timedelta, datetime

now = datetime.now()
twenty_two_may = datetime(2022, 12, 22)
period = twenty_two_may - now
print("{} kun  {} sekund   {} mikrosekund".format(period.days, period.seconds,
period.microseconds))
# 135 kun  16024 sekund   750740 mikrosekund

print("Hammasi: {} sekund".format(period.total_seconds()))
# Hammasi: 11680024.75074 sekund
```

7.2.6-rasm

## Sanalarni solishtirish

Satrlar va sonlar kabi sanani ham standart taqqoslash amallari yordamida solishtirish mumkin:

```
from datetime import datetime

now = datetime.now()
deadline = datetime(2019, 5, 22)
if now > deadline:
    print("Dasturni topshirish muddati o'tdi")
elif now.day == deadline.day and now.month == deadline.month and now.year == deadline.year:
    print("Bugun dasturni topshirish muddati")
else:
    period = deadline - now
    print("Qoldi {} kun".format(period.days))
```

7.2.7-rasm

## Nazorat savollari

1.Pythonda *timedelta* sinfining mohiyatini tushuntiring?

2.Pythonda yangi yilgacha necha soat, necha daqiqa va necha soniya qolganini aniqlovchi dastur tuzing(vaqtlarni ayirish usulidan foydalaning)?

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

18-mavzu: **Funksiya va uning imkoniyatlari**

**Mavzu rejasi:**

1.Funktsiyani aniqlash va uning chaqirish.

2.Funktsiya aniqlanishining joylashuvi

3.Muhim bo’lmagan parametrlar va kalitlarni moslashtirish.

4.Funktsiyadagi parametrlarning o'zgaruvchan soni

Funksiyalar ma`lum bir vazifani bajaradigan va dasturning boshqa qismlarida qayta ishlatilishi mumkin bo’lgan kod blokini ifodalaydi. Funksiyaning rasmiy ta`rifi quyidagicha:

```
def funksiya_nomi([parametrlar ro`yxati]):
```


1.17.1-rasm

Ushbu funksiyaning nomi Display bo’lib, u parametrga ega emas. Bu funksiya chaqirilganda konsol ekraniga **"Python tilida funksiya e`loni!"** satri chiqariladi.

Funksiyani chaqirish uchun uning nomi va oddiy qavslar ichida mos parametrlariga qiymatlar berish orqali amalga oshiriladi, masalan:


1.17.2-rasm

Bu funksiya uch marta chaqirilmoqda va konsol ekraniga quyidagi ma`lumotlar chiqariladi:




1.17.3-rasm

**Rasm №3.**Natijaning konsolga chiqarilishi.

Quyida parametrli funksiyaning aniqlanishiga misol keltirilgan:

```
def Salom(ismi):
    print("Salom",ismi)

Salom("Tolib")
Salom("Rustam")
```

1.17.4-rasm

bu funksiya *ismi* nomli parametrga ega bo'lib, funksiya chaqirilganda parametrga turli qiymatlar berilgan va natijada konsolga quyidagi ma`lumotlar chiqarilgan:

```
# Salom Tolib

# Salom Rustam
```

1.17.5-rasm

**Nazorat savollari**

1.Pythonda fungsiya e'lon qilishni tushuntiring?

2. Pythonda  fungsiyadagi *return* operatorining vazifasini tushuntiring.

3. Pythonda qiymat qaytaruvchi va qiymat qaytarmaydigan fungsiyalar afzallik jihatlari haqida fikr yuriting?

4. Pythonda yoshingizni  kiritsangiz tug'ilganizga necha oy bo'lganini qaytaruvchi fungsiya tuzing.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

## 19-mavzu: Generator funksiyalari

**Mavzu rejasi:**

1.Generator funktsiyalari.

2.Funktsiya dekoratorlari.

3.Rekursiya. Faktorial hisoblash.

3.Global va local(mahalliy) o'zgaruvchilar.

4.O'rnatilgan funktsiyalar

O’zgaruvchilarning ko’rinish sohasi ularning dasturdagi qo’llanilishi mumkin bo’lgan qismi (kontekst)ga aytiladi. Python dasturlash tilida kontekstlarning ikki turi mavjud: global va lokal.

Global o’zgaruvchilar barcha funksiyalardan tashqarida aniqlangan bo’ladi va ixtiyoriy funksiyaning ichkarisida foydalanilish imkonini beradi. Masalan:

```
ismi = "Sardor"
def Salom():
    print("Salom", ismi)
def Xayr():
    print("Xayr", ismi)
Salom()
Xayr()
```

1.18.1-rasm

Bu erda har ikkala funksiyada *ismi* - lokal o’zgaruvchilari aniqlangan va ularning qo’rinish sohalari o’zi joylashgan funksiyaning ichida bo’lib, ularning har biri faqat o’zi joylashgan funksiya ichida amal qiladi.

Agar  lokal o’zgaruvchi va global o’zgaruvchi bir xil nomga ega bo’lsa, u holda lokal o’zgaruvchi o’zining ko’rinish sohasida global o’zgaruvchini “yashirib” qo’yadi. Masalan:

```
def Salom():
    ismi = "Tolib"
    familiyasi = "Otaboyev"
    print("Salom", ismi, familiyasi)
def Xayr():
    ismi = "Tolib"
    print("Xayr", ismi)
Salom()
Xayr()
def Salom():
    ismi = "Tolib"
    familiyasi = "Otaboyev"
    print("Salom", ismi, familiyasi)
def Xayr():
    ismi = "Tolib"
    print("Xayr", ismi)
Salom()
Xayr()
```

1.18.2-rasm

```
ismi = "Tolib"
def Salom():
    print("Salom", ismi)
def Xayr():
    ismi = "G'olib"
    print("Xayr", ismi)
    Salom()  # Salom Tolib
Xayr() # Xayr G'olib
```

1.18.3-rasm

1.18.3-rasmda 1-qatorda *ismi* deb nomlangan global o'zgaruvchi aniqlangan va xuddi shu nom bilan *Xayr()* funksiyasining ichida (6-qatorga qarang) ham lokal o'zgaruvchi aniqlangan. Funksiya ichida aniqlangan lokal o'zgaruvchi, funksiya ichida global o'zgaruvchi "yashirib" qo'yadi. Shuning uchun *Xayr*() funksiyasi chaqirilganda javobga lokal o'zgaruvchining qiymati chiqarilgan.

Agar funksiyalarning ichida global o'zgaruvchining qiymatini o'zgartirish talab qilinsa, u holda *global* kalit so'zidan foydalaniladi.

```
def Xayr():
    global ismi
ismi = "G'olib"
print("Xayr", ismi)

#Xayr G'olib
```

1.18.4-rasm

Funksiya ichkarisida global o’zgaruvchining qiymati o’zgartirilishidan oldin *global* kalit so’zi orqali ko’rsatib o’tilishi shart (2-qatorga qarang).

Odatda boshqa dasturlash tillaridagi kabi Python dasturlash tilida ham global o’zgaruvchilardan iloji boricha kamroq foydanish tavsiya qilinadi.

**Nazorat savollari**

1.Pythonda fungsiyaning lokal o’zgaruvchilarni tushuntiring?

2. Pythonda fungsiyaning global o’zgaruvchilarni tushuntiring?

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**20-mavzu: Modullar**

**Mavzu rejasi:**

1.Import ko’rsatmasi.

2.From ko’rsatmasi.

3.Modul qidirish yo'llari

4.Modullarni qayta yuklash.

5.Paketlar

Python dasturlash tilida modullar alohida faylda yozilgan va boshqa dasturlarda qayta qo’llanilishi mumkun bo’lgan kodlar majmuini ifodalaydi.

Modullarni hosil qilish uchun ***.py*** kengaytmali fayl ochiladi va unga bir yoki bir nechta funksiyalar yoziladi. Faylning nomi keyinchalik modulning nomi sifatida qo'llaniladi.

Quyida Pycharm muhitida loyiha ikkita fayldan, ***misol.py*** nomli asosiy fayl va ***metodlar.py*** qo'shimcha tashqi modulni ifodalovchi fayldan tashkil topgan holatga misol keltirilgan(Python dasturlash tilida modullarni yaratish va ulash.) :




1.21.1-rasm

Yuqoridagi rasmda (1.21.1-rasmga qarang) ***metodlar.py*** nomli faylda *Summa(n)* va *Faktorial(n)* deb ataluvchi ikkita funksiya aniqlangan, ya`ni:

```
def Summa(n):
    s = 0
    for i in range(1, n + 1):
        s += i
    return s
def Faktorial(n):
    if n == 1 or n == 0:
        return 1
    return n * Faktorial(n - 1)
```

1.21.2-rasm

Ushbu funksiyalarni boshqa bir faylda  yoziladigan kodda modul sifatida ulab qo’llanilishi quyidagi dasturda ko’rsatilgan:

```
import metodlar
 try:
    n = int(input('n='))
    print('Summa:', metodlar.Summa(n))
print('Faktarial', metodlar.Faktorial(n)) except:
    print("Qiymat kiritish xatoligi ro`y berdi")
```

1.21.3-rasm

Moduldan foydalanish uchun dastlab uni dasturga ulash talab qilinadi. Buning uchun ***import*** kalit so’zi va undan keyin modul fayli nomi ko’rsatilishi kerak: *import metodlar*.

Modul funksionallariga murojaat qilish uchun uning **nomlar fazosi** olishishi kerak. Odatda u modul nomi bilan mos tushadi. Bizning holatda bu *metodlar* deb nomlangan.

Modulning nomlar fazosi olingandan keyin uning ichidagi funksiyalarga *nomlar_fazosi.funksiya* sxemasi bo’yicha murojaat qilinadi:

*metodlar.Faktorial(n).*

***misol1.py*** fayli kompilyatsiya qilinganda unga ulangan modullarda joylashgan funksiyalarga murojaat amalga oshiriladi. Xususan, dastur ishlaganda qonsolda quyidagicha ma`lumotlar chiqariladi:




1.21.4-rasm

**Nomlar fazosini sozlash.** Odatda modullar import qilinganda, nomlar fazosi va modul fayli nomlari bir xil bo'ladi va modul funksionallariga shu nomlar fazosi orqali murojaat qilinadi. Lekin ba`zi holatlarda nomlar fazosi nomining haddan ziyod uzunligi noqulayliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlarda nomlar fazosiga ***as*** kalit so'zidan foydalanib, psevdonom berish va u orqali modul funksionallariga murojaatlarni amalga oshirish mumkin. Masalan:

```
import metodlar as mt
 try:
    n = int(input('n='))
    print('Summa:', mt.Summa(n))
    print('Faktarial', mt.Faktorial(n))
 except:
    print("Qiymat kiritish xatoligi ro`y berdi")
```

1.21.5-rasm

Bu holatda nomlar fazosi *mt* deb nomlangan.

Modullarni ulashning boshqa usullaridan biri ***from*** kalit so'zidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bunda joriy modulning global nomlar fazosiga ulanilayotgan modulning funksionallari chaqiriladi:

```
from metodlar import Summa
print('Summa:',Summa(n))
```

1.21.6-rasm

Bu holatda ***metodlar*** modulidan ***Summa*** funksiyasi global nomlar fazosiga import qilingan. Shuning uchun import qilingan funksiyadan foydalanilganda (funksiya joriy faylda chaqirilganida), xuddi bu funksiya shu faylda aniqlangandek, uning oldida nomlar fazosi ko’rsatilmasligi ham mumkin.

Moduldagi barcha funksiyalarni global nomlar fazosiga birdaniga import qilish uchun maxsus belgi * dan foydalaniladi.

```
from metodlar import *
print('Summa:',Summa(n))
print('Faktarial',Faktorial(n))
```

1.21.7-rasm

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, moduldagi barcha funksiyalarni bunday tarzda global nomlar fazosiga import qilish kolliziyaga olib kelishi mumkin. Masalan, agar joriy faylda ham import qilinayotgan moduldagi funksiya nomi bilan ayni mos tushadigan funksiya yoki o’zgaruvchilar bo’lsa kolliziya holati bo’ladi va dastur ishga tushirilganda xatolikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun odatda bu tarzda modulni ulashga maslahat berilmaydi.

**Modul nomi**. 5-rasmdagi keltirilgan dasturda *misol.py* fayli asosiy modulni ifodalab, unga *metodlar.py* moduli ulangan edi. *misol.py* ni ishga tushirganda barcha zarur ishlar bajariladi. Shuningdek, *metodlar.py* ning yakka o’zi ishga tushirilsa hech qanaqa ish bajarilmaydi va konsolga hech nima chiqmaydi. Chunki

ushbu modulda faqatgina funksiyalar aniqlangan va boshqa ish bajarilmagan. Lekin *metodlar.py* ga shunday o'zgartirishlar kiritish mumkinki, uning alohida o'zi ham bajarilishi yoki u boshqa modulga ulanishi ham mumkin bo'ladi.

Modul bajarilganda muhit uning nomini aniqlaydi va uning nomini *__name__* (oldin va keyin ikkita tag chizig'i mavjud) global o'zgaruvchisiga yuklaydi. Agar modul bajariluvchi bo'lsa, uning nomi *__main__* (har ikkala tomonida ikkita tag chizig'i bor) ga teng bo'ladi. Agar modul boshqa modulda ishlatilayotgan bo'lsa, u holda bajarilish paytida uning nomi mos ravishda fayl nomi bilan bir xil bo'ladi (faqat ***.py*** kengaytmasisiz). *metodlar.py* fayliga quyidagicha o'zgartirishlar kiritamiz:

```python
def Summa(n):
    s = 0
    for i in range(1, n + 1):
        s += i
    return s
def Faktorial(n):
    if n == 1 or n == 0:
        return 1
    return n * Faktorial(n - 1)
def Main():
 n = 4
 s = Summa(n)
 f = Faktorial(n)
 print('Summa:', s)
 print('Faktorial:', f)
if __name__ == "__main__":
   Main()
```

1.21.8-rasm

Endi bu modul boshqa modullarga bog'liq bo'lmagan holda o'zi ham bajarilishi mumkin. Odatda modullarning bunday aniqlanishi undagi funktsionallarni

tekshirib ko’rish uchun qilinadi. Yuqoridagi holatda qo’shimcha *Main* funksiyasi aniqlanib, unda test qilinishi kerak bo’lgan funksiyalar chaqirilgan. Agar shu modulning o’zi bajarilganda (kompilyatsiya qilinganda), u holda *if* sharti bajariladi va natijada *Main* funksiyasi chaqiriladi. Albatta qo’shimcha *Main* aniqlanishi shart emas. Test qilish uchun barcha funksiyalarni *if* operatorining ichida chaqirish ham kifoya bo’lar edi.

Shunday qilib, *metodlar.py* skriptining o’zi alohida ishga tushirilsa, o’z – o’zidan *Python* *__name__* global o’zgaruvchisiga *__main__* nomini beradi. Agar u boshqa skriptga qo’shimcha modul sifatida ulangan bo’lsa va boshqa skriptda chaqirilsa, u holda *__name__* global o’zgaruvchisiga *metodlar* nomi beriladi.

**Import ko’rsatmasi**

Import ko’rsatmasi modulni import qilish imkonini beradi. O'rnatilgan modullarni ulash uchun biz bir necha bor ushbu qo'llanmaga murojaat qildik. Masalan, biz strftime() funksiyasidan foydalanib joriy sanani olish uchun vaqt modulini kiritdik:

vaqtni import qilish # Vaqt modulini import qilish

chop etish (vaqt .strftime (" % d .% m .% Y " )) # Joriy sanani chop etish

Import bayonoti quyidagi formatga ega:

import <Modul nomi 1> [<taxallus 1> sifatida] [, . . . ,

<Modul nomi N> [taxallus N > sifatida] ]

Import kalit so'zidan keyin modul nomi keladi. Iltimos, ism kengaytmalar va fayl yo'llarini o'z ichiga olmaydi. Modullarni nomlashda shuni yodda tutingki, import operatsiyasi bir xil nomdagi identifikatorni yaratadi, ya'ni modul nomi o'zgaruvchilarni nomlash qoidalariga to'liq mos kelishi kerak. Raqam bilan boshlanadigan nom bilan modul yaratish mumkin, lekin bunday modulni import qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari, siz modul nomlarini kalit so'zlar, o'rnatilgan

identifikatorlar va standart kutubxonaga kiritilgan modul nomlari bilan moslashtirishdan qochishingiz kerak.

Bir vaqtning o'zida vergul bilan ajratilgan bir nechta modullarni import qilishingiz mumkin. **Masalan,**

```
import time, math
print(time.strftime("%d.%m.%Y"))
print(math.pi)
```

Modulni import qilgandan so'ng, uning nomi modul ichida belgilangan atributlarga kirishingiz mumkin bo'lgan identifikatorga aylanadi. Modul atributlariga nuqta belgisi yordamida kirish mumkin. Masalan, **math** moduli ichida joylashgan Pi doimiysiga quyidagicha murojaat qilishingiz mumkin:

**math.pi**

funksiyasi modul atributining satr sifatida berilgan nomi bilan qiymatini olish imkonini beradi. Ushbu funktsiya yordamida siz atribut nomini dinamik ravishda yaratishingiz mumkin - dasturni bajarish paytida. Funktsiya formati:

} : l k bwI"– ˚ ¸#ˆ<r w ˇ"# r• I ˙. ˇ , #˚ ˆ.˙ ˇT(†c

Belgilangan atribut topilmasa, istisno tashlanadi g k 9m ` : ^ k k k Xato xabarini oldini olish uchun uchinchi parametr atribut mavjud bo'lmasa qaytariladigan qiymat bo'lishi mumkin. Funktsiyadan foydalanishga misol 12.3 ro'yxatda ko'rsatilgan.

## Nazorat savollari

1.Pythonda nomlar fazosini tavsifini tushuntiring.

2. Pythonda boshqa fayldan fungsiyani import qilib ishlatish usulini tushuntiring?

3.Import ko’rsatmasi nima?

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд.,

перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)
2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.
3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**21-mavzu: Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash**

**Mavzu rejasi:**

1.Sinfni aniqlash va sinfni yaratish.

2.__init__() va __del__() usullari.

3.Meros olish. Ko'plikda meros olish.

4.Maxsus usullar.

5.Operatorning haddan tashqari yuklanishi.

Python dasturlash tilida obyektga yo’naltirilgan dasturlash tamoyilini ham ishlatish mumkin bo’lib, bu o’z navbatida dastur kompanentlarini sinflar ko’rinishida ifodalash imkonini beradi.

Sinf obyektning shabloni yoki formal tavsifi hisoblanadi. Obyekt esa ushbu sinfning haqiqiy shaklangan nusxasi (экземпляри) hisoblanadi. Quyidagicha tatbiq qilish mumkin: hammada inson to’g’risida qandaydir tassavvur mavjud – ikkita qo’li, ikkita oyog’i, boshi, oshqozoni, asab tizimi va boshqalari mavjud. Demak, shablon bor – bu shabloni sinf deb atash mumkin. Haqiqatdan ham, mavjud bo’lgan odamni bu sinfning obyekti deyish mumkin.

Kod nuqtai nazaridan sinf – funksiyalar va o’zgaruvchilar to’plamini ma’lum bir vazifalarni bajarish uchun o’zida birlashtiradi. Sinfning funksiyalari odatda metodlar deb ataladi. Ular sinfning xususiyatlarini ifodalaydi. Sinfning o’zgaruvchilari esa atributlar deb nomlanadi – ular singning holatini saqlaydi.

Sinf *class* kalit so’zi bilan aniqlanadi:

```
class sinf_nomi:
sinf_metodilari
```

6.1.1-rasm

Sinf obyektini yaratish uchun quydagi sintaksis ishlatiladi:

```
obyekt_nomi = sinf_nomi([parametrlar])
```

6.1.2-rasm

Masalan, insonni ta’riflaydigan *Person* sinfini aniqlaymiz:

```
class Person:
name = "Ali"
  def display_info(self):
        print("Salom, mening ismim", self.name)

person1 = Person()
person1.display_info()  # Salom, mening ismim Ali
person2 = Person() person2.name = "Salim"
person2.display_info()  # Salom, mening ismim Salim
```

6.1.3-rasm

*Person* sinfida insonning ismini saqlovchi *name* atributi va inson haqida ma’lumot chiqaradigan *display_info* metodlari aniqlangan.

Ixtiyoriy sinfning metodi aniqlayotganda hamma metodlarning birinchi parametri sifatida obyektning o’ziga ko’rsatgich bo’lgan *self* (bir qator dasturlash tillarida parametrning anologi sifatida *this* kalit so’zi ishlatiladi) parametri

bo’lishini hisobga olish kerak. Ushbu ko’rsatgich yordamida sinfning atriburlariga va metodlariga murojaat qilishimiz mumkin. Xususiy holda, *self.name* ifodasi orqali foydalanuvchi ismini olish mumkin.

*Person* sinfini aniqlagandan so’ng, *person1* va *person2* uning ikkita obyetkini yaratamiz. Obyekt nomlaridan foydalanish orqali uning metodlariga va atributlariga murojaat qilishimiz mumkin. Ushbu holda, qora oynaga sartni chiqaruvchi *display_info()* metodini har bir obyektdan chaqiramiz va ikkinchi obyektning *name* atributini o’zgartiramiz. *display_info* metodiga murojaatda *self* parametiriga hech qanday qiymat berish shart emas.

Vorislik avvaldan mavjud sinf asosida yangi sinf imkonini beradi. Vorislik inkapsulyatsiya bilan bir qatorda obyektga yo’naltirilgan dasturlashning asosini tashkil qiladi. Vorislikning asosiy tushunchalari bu: super_sinf va sinf_osti lar hisoblanib, sinf_osti sinfi  super_sinfdan hamma ochiq atributlar va metodlarni voris qilib oladi. Super_sinf ko’pincha asos yoki ota sinf deb ham nomlanadi, sinf ostisi esa hosilaviy sinf, voris sinf yoki bola sinf ham deb nomlanadi.

Sinflar vorisliklari uchun sintaksis quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi:

```
class sinfostisi (supersinf):
    sinfostisi_azolari
```

6.6.1-rasm

O’tgan darslarda insonni tasvirlaydigan *Person* sinfini yaratgandik.

Korxonada ishlovchi ishchini tasvirlaydigan sinfni yaratish zarur deb qaraylik.

Buning uchun yangi *Employee* sinfni noldan yaratishimiz mumkin. Biroq,

*Employee* sinfining atributlari va metodlari ham *Person* sinfidagilar kabi bo'ladi, chunki ishchi ham inson. Shuning uchun ham *Employee* sinfini qaytadan yaratishda ma'no qolmaydi. Ushbu holda vorislikni ishlatish qulay hisoblanadi. *Person* sinfidan *Employye* sinfiga vorislik olamiz:

```
class Person:
    def __init__(self, name, age):
        self.__name = name  # ismni o'rnatamiz
        self.__age = age  # yoshni o'rnatamiz

    @property
    def age(self):
        return self.__age

    @age.setter
    def age(self, age):
        if age in range(1, 100):
            self.__age = age
        else:
            print("Mumkin bo'lmagan yosh")
    @property
    def name(self):
        return self.__name
    def display_info(self):
        print("Ism:", self.__name, "\tYosh:", self.__age)
class Employee(Person):
    def details(self, company):
        print(self.name, company, " kompaniyasida ishlaydi")

ali = Employee("Ali", 23)
ali.details("Google")
ali.age = 33
ali.display_info()
```

6.6.2-rasm

*Employee* sinfi to’lig’icha *Person* sinfning funksiollarini qabul qiladi va qo’shimcha ravishda *details()* metodi qo’shildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, *Employee* sinfi uchun *Person* sinfidagi *__name* yoki *__age* turidagi yopiq atributlardan tashqari barcha metodlar va atributlar *self* kalit so'z orqali murojaat mavjud. *Employee* obyektini yaratishda biz aslida *Person* sinfining konstruktoridan foydalanamiz. Bundan tashqari, ushbu obyektda *Person* sinfining barcha metodlarini chaqirishimiz mumkin.

**Nazorat savollari**

1.Obyektga asoslangan dasturlash nima?
2.Obyektga asoslangan dasturlashning asosiy obyekti nima?
3.Klasslar qanday e’lon qilinishi va foydalanishini tushuntiring?
4.Python dasturlash tilida familiya,ism,fakultet va kursi kabi ma’lumotlarni o’z ichiga oluvchi klass e’lon qiling.
5.Pythonda vorislik mexanizmini izohlab bering?
6.Pythonda vorislik mexanizmidan foydalanishga misollar keltiring?

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)
2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.
3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**22-mavzu: Sinf va uning xususiyatlari**

**Mavzu rejasi:**

1.Sinf ichidagi identifikatorlarga kirishni cheklash.

2.Sinf xususiyatlari.

3.Sinf dekoratorlari.

Qoidaga ko’ra, sinflar alohida modullarda joylashadi va asosiy skriptda ular import qilinadi. Aytaylik bitta loyihada ikkita fayli mavjud: *main.py* (dasturning asosiy skripti) va *classes.py* (sinflar aniqlangan skript).

*classes.py* faylida ikkita sinf aniqlaymiz:

```
class Person:     # konstruktor
  def __init__(self, name):
        self.name = name  # nomni o'rnatamiz
  def display_info(self):
        print("Salom, ismim", self.name)
class Auto:
  def __init__(self, name):
        self.name = name
  def move(self, speed):
        print(self.name, "tezlik bilan harakatlanayapti ", speed, "km/s")
```

6.4.1-rasm

*Person* sinfiga qo’shimcha ravishda avtomobilni harakterlovchi *move* va *name* atributi bor *Auto* sinfi aniqlangan. Bu sinflarga bog’lanamiz va *main.py* asosiy dastur skriptida foydalanamiz:

```
from classes import Person, Auto

ali = Person("Ali") ali.display_info()

bmw = Auto("Malibu") bmw.move(65)
```

6.4.2-rasm

Sinflarga bog’lanish ham moduldan funksiyani importi kabi amalga oshiriladi.

Yoki to’liq modulga ham bog’lanish mumkin:

```
Import classes
```

6.4.3-rasm

Natijada quyidagini olamiz:

```
#Salom, ismim Ali
#Malibu tezlik bilan harakatlanayapti  65 km/s
```

6.4.4-rasm

6.5. Inkapsulyatsiya

Kelishuv bo’yicha sinflardagi atributlar umumiy ruxsatga ega bo’ladi, ya’ni, dasturning ixtiyoriy joyidan obyektning atributlariga ruxsat olish va ularni o’zgartirish mumkin. Masalan:

```
class Person:
  def __init__(self, name):
        self.name = name  # ismini o'rnatish
        self.age = 1  # yoshni o'rnatish
  def display_info(self):
        print("Ism:", self.name, "\tYosh:", self.age)

ali = Person("Ali")
ali.name = "O'rgamchak odam"  # name atributini o'zgartirish
ali.age = -129  # age atributini o'zgartirish
ali.display_info()  # Ism: O'rgamchik odam     Yosh: -129
```

6.5.1-rasm

Lekin ushbu holda, misol uchun, yosh yoki odamning ismini noto’g’ri o’zgartirish mumkin, masalan, yuqoridagi kabi yoshiga manifiy son yozish. Ushbu holda obyekt atributiga murojaatni nazorat qilish haqida savol paydo bo’ladi.

Bunday muammo ikapsulyatsiya tushunchasi bilan chambarchas bog’liq. *Iknapsulyatsiya* obyektga yo’naltirilgan dasturlashning fundamental tushunchalaridan biri hisoblanadi. Kodnig murojaat joyidan obyekt atirbutiga to’g’ridan-to’g’ri murojaat qilishni chegaralaydi.

Python dasturlash tilida sinf atributlarini inkapsulyatsiya yordamida ko’rinmas yoki yopiq va chegaralangan murojaatni maxsus metodlar orqali o’rnatish mumkin. Odatda ular, xususiyat deb ham ataladi.

Yuqoridagi aniqlangan sinfga quyidagicha xususiyatlar qo’shamiz:

```
class Person:
  def __init__(self, name):
      self.__name = name  # ismini o'rnatish
      self.__age = 1  # yoshni o'rnatish
  def set_age(self, age):
    if age in range(1, 100):
          self.__age = age
    else:
          print("Mumkin bo'lmagan yosh")
  def get_age(self):
    return self.__age
  def get_name(self):
    return self.__name
  def display_info(self):
      print("Ism:", self.__name, "\tYosh:", self.__age)

ali = Person("Ali")

ali.__age = 43  # age atributi o'zgamaydi
ali.display_info()  # Ism: Ali  Yosh: 1
ali.set_age(-3486)  # Mumkin bo'lmagan yosh
ali.set_age(25)
ali.display_info()  # Ism: Ali  Yosh: 25
```

6.5.2-rasm

Yopiq atribut yaratish uchun atribut nomi oldidan ikkita tag chiziq qo’yish lozim: *self.__name*. Bunday atributlarga faqat ushbu sinfning ichidagina murojaat qilish mumkin, lekin, sinfdan tashqarida murojaat qilib bo’lmaydi. Masalan, atributga qiymat yozib bo’lmaydi:

```
ali.__age = 43
```

6.5.3-rasm

Uning qiymatini olishga urinsak xatolik yuz beradi:

```
print(ali.__age)
```

6.5.4-rasm

Lekin *__age* atributinga sinf tashqarisida qiymat berish kerak bo'lishi mumkin Buning uchun xususiyat yaratiladi va u orqali atribur qiymatiniga murojaat amalga oshiriladi. Masalan quyida *get_age()* metodi orqali *__age* atributi qiymatini sinf tashqarisida olish mumkin:

```
def get_age(self):
  return self.__age
```

6.5.5-rasm

Ushbu metod getter yoki aksessor deb ham nomlanadi.

Qiymatni o'zgartirish uchun esa yana boshqa xususiyati aniqlanadi:

```
def set_age(self, value):
  if value in range(1, 100):
        self.__age = value
  else:
        print("Mumkin bo'lmagan yosh")
```

6.5.6-rasm

Bu yerda esa biz kelayotgan qiymatni shartga tekshirish mumkin bo’ladi. Bu metod setter yoki myuteytor deb ham nomlanadi.

Har bir yopiq atribut uchun bir juft xususiyat aniqlash shart emas. Yuqoridagi misolda faqat konstruktor yordamida qiymatlarni berish mumkin. Qiymatni olish uchun *get_name* metodidan foydalniladi.

### Xususiyatlar annotatsiyasi

Yuqorida qanday qilib xususiyatlarni yaratishni ko’rib chiqdik. Python dasturlash tilida yanada qulayroq usul mavjud. “*@”*- belgisi bilan boshlanuvchi annotatsiyadan foydalanish orqali bu usul amalga oshiriladi.

Getter-xususiyat yaratish uchun *@property* annototsiyasini qo’yish lozim. Setter-xususiyat qo’yish uchun esa *@setter_xususiyatnomi.setter* annotosiyasni o’rnatish lozim.

*Person* sinfini annototsiyadan foydalanib qayta yozamiz:

```python
class Person:
  def __init__(self, name):
        self.__name = name  # ismni o'rnatamiz
        self.__age = 1  # yoshni o'rnatamiz
    @property
  def age(self):
        return self.__age

    @age.setter
  def age(self, age):
    if age in range(1, 100):
            self.__age = age
    else:
            print("Mumkin bo'lmagan yosh")

    @property
  def name(self):
        return self.__name
  def display_info(self):
        print("Ism:", self.__name, "\tYosh:", self.__age)

ali = Person("Ali")
ali.display_info()  # Ism: Ali  Yosh: 1
ali.age = -3486  # Mumkin bo'lmagan yosh
print(ali.age)  # 1
ali.age = 36
ali.display_info()  # Ism: Ali  Yosh: 36
```

6.5.7-rasm

Birinchi navbatda, setter-xususiyati getter-xususiyatidan so’ng aniqlanishiga e’tibor qaratish zarur. Ikkinchidan, setter va getter *age* bir xil nomlangan. Shuning uchun ham, getter *age* nomlangan, shu sababdan ham setterga *@age.setter* annotatsiyasi o’rnatilgan.

Natijada, getter va setter *ali.age* ifodasi bilan murojaat qilish mumkin bo’ladi.

## Nazorat savollari

1.Pythonda inkapsulyatsiya nima va u qanday vazifani bajaradi?

2.Pythonda xususiyatlar annotatsiyasidan foydalanishning mohiyatini tushuntiring?
3.Getter va Setter xusuiyatlarini tushuntirib bering.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)
2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.
3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**23-mavzu:Istisnolarni qayta ishlash**

**Mavzu rejasi:**

1.Try . . . except . . . else . . . finally ko’rsatmasi.
2.With . . . as ko’rsatmasi.
3.O'rnatilgan istisno sinflari.
4.Foydalanuvchi istisnolar.

Python dasturlash tilida kod yozilganda ikki turdagi xatoliklarni uchratish mumkin: Birinchi turi bu **sistaksis xatoligi (syntax error)** bo’lib, bunday turdagi xatoliklar odatda til sintaksisidan noto’g’ri foydalanganda yuzaga keladi. Agarda dasturda sintaksis xatoligi bo’lsa, uni kompilyatsiya qilishning imkoni bo’lmaydi. Kod yozishda Pycharm yoki shunga o’xshash boshqa IDElardan foydalanganda, odatda muhitning o’zi bunday turdagi xatoliklarni aniqlab beradi va ajratib ko’rsatadi; Ikkinchi turdagi xatoliklar bu **bajarilish davridagi xatolik (Runtime error)** bo’lib, odatda bunday turdagi xatoliklar kompilyatsiya bosqichida emas balki dastur bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar hisoblanadi. Bunday xatoliklarga istisno holatlar ham deyiladi. Masalan:

```
str = "hello"
number = int(str)
print(number)
```

1.22.1-rasm

Bu erda sistaksis xatolik kuzatilmaydi, lekin kompilyatsiya jarayonida ***ValueError*** deb nomlanuvchi xatolik konsolga chiqariladi. Chunki *str* o'zgaruvchisida satr qiymat mavjud va uni 2-qatorda butun turga o'girilmoqda, bu esa mumkin emas. Bunday turdagi istisno holatlar ayniqsa foydalanuvchi tomonidan qiymatlar konsol ekranidan kiritilganda ro'y berish ehtimolligi kattaroq. Masalan:

```
str = input("Satr kiriting:")
number = int(str)
print(number)
```

1.22.2-rasm

Agar foydalanuvchi tomonidan konsoldan sondan farqli bo'lgan qiymatlar kiritilsa xatolik ro'y beradi.

Istisno holatlar ro'y berganda, dastur ishlashdan to'xtatiladi. Bunday holatlarni boshqarish uchun Python dasturlash tilida maxsus ***try except*** tuzilmasi mavjud bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi: ***try***:

*instruktsiyalar*

***except*** [*Istisno_turi*]:

Ushbu dasturda *son* o'zgaruvchisiga qiymat sifatida konsoldan satr kiritilsa konsol ekraniga quyidagi ma`lumotlar chiqariladi:

```
try:
    son = int(input("Sonni kiriting: "))
    print("Kiritilgan son:", son)
except:
    print("O`girish noto`g`ri amalga oshirildi.")
    print("Dastur tugadi.")
```

1.22.3-rasm




1.22.4-rasm

1.22.4-rasmda konsol ekranida istisno ro'y bergan holatdagi ma`lumotlar. Agar *son* o'zgaruvchisiga qiymat sifatida konsoldan son kiritilsa konsol ekraniga quyidagi ma`lumotlar chiqariladi:




1.22.5-rasm

1.22.5-rasmda konsol ekranida qiymat to'g'ri kiritilgandagi holat.

Yuqorida, dastur ishga tushirilganda qiymat xato kiritilgandagi (1.22.4-rasm

) va to’g’ri kiritilgan paytdagi (1.22.5-rasmda) holatlarlarda konsol ekraniga chiqarilgan ma`lumotlarni ko’rish mumkin. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, agar *try – except* tuzilmasi qamrovida istisno holati yuzaga kelgan taqdirda dastur to’xtab (qotib) qolmaydi, balki boshqaruv istisno holatini qayta ishlovchi qismga (*except blokiga*) uzatiladi.

Yuqoridagi misolda kodda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan barcha istisno holatlarni qayta ishlovchi holat ko’rildi. Ammo qayta ishlanuvchi istisno turini konkretlashtirish ham mumkin. Buning uchun *except* kalit so’zidan keyin istisno turi yoziladi:

```
try:
    son = int(input("Sonni kiriting: "))
    print("Kiritilgan son:", son)
except ValueError:
    print("O`girish noto`g`ri amalga oshirildi.")
print("Dastur tugadi.")
```

1.22.6-rasm

Agar kodda bir necha xil istisno holatlari ro’y berishi mumkin bo’lsa, qo’shimcha *except* ifodalardan foydalangan xolda, ularning har birini alohida qayta ishlashimiz mumkin bo’ladi, masalan:

```
try:
    son1 = int(input("Birinchi sonni kiriting: "))
    son2 = int(input("Ikkinchi sonni kiriting: "))
    print("Bo`lish natijasi:", son1/son2)
except ValueError:
    print("O`girish muaffaqiyatsiz amalga oshirildi.")
except ZeroDivisionError:
    print("Nolga bo`lish yuzaga keldi.")
except Exception:
    print("Umumiy istisno holati.")
print("Dastur tugadi.")
```

1.22.7-rasm

Agar kiritilgan satrni songa o'girishda istisno ro'y bersa *ValueError* bloki, kiritilgan ikkinchi qiymat 0 soniga teng bo'lsa *ZeroDivisionError* bloki orqali qayta ishlanadi. Shu ikki istisno turidan boshqa ixtiyoriy istisno ro'y bersa *Exception* blokida qayta ishlanadi.

***Finally* bloki**. Istisno holatlar bilan ishlaganda *finally* blogini ham ishlatish mumkin. Bu blok ixtiyoriy hisoblanib, uning o'ziga xosligi shundan iboratki, ushbu blokda yozilgan kodlar istisno holati ro'y berish bermasligidan qat`iy nazar har doim bajariladi.

```
try:
    son = int(input("Birinchi sonni kiriting: "))
except ValueError:
    print("O`girish muaffaqiyatsiz amalga oshirildi.")
finally:
    print("Try bloki ishi tugadi")
print("Dastur tugadi.")
```

1.22.8-rasm

Odatda *finally* blokida dasturda foydalanilgan resurslarni bo'shatish, masalan, faylni yopish kabi qodlar yoziladi.

**Istisno to'g'risida ma`lumot olish**. ***as*** operatori yordamida *except* blokida foydalanilishi mumkin bo'lgan istisno to'g'risidagi barcha ma`lumotlarni o'zgaruvchiga uzatish mumkin:

```
try:
    son = int(input("Sonni kiriting: "))
except ValueError as e:
    print("Xatolik:",e)
print("Dastur tugadi.")
```

1.22.9-rasm

Konsoldan noto'g'ri qiymat kiritilgandagi holati quyidagicha:




1.22.10-rasm

1.22.10-rasmda konsol ekranida qiymat noto'g'ri kiritilgandagi holat.

**Istisno holatini yuzaga keltirish.** Ba`zida istisno holatlarini foydalanuvchining o'zi hosil qilishga to'g'ri keladi. Buning uchun ***raise*** operatoridan foydalaniladi:

```
try:
    son1 = int(input("Birinchi sonni kiriting: "))
    son2 = int(input("Ikkinchi sonni kiriting: "))
    if son2 == 0:
        raise Exception("Nolga bo`lish yuzaga keldi.")
        print("Bo`lish natijasi:", son1 / son2)
except ValueError:
    print("O`girish muaffaqiyatsiz amalga oshirildi.")
except Exception as e:
    print("Xatolik:", e)
print("Dastur tugadi.")
```

1.22.11-rasm

Bu erda ikkinchi kiritiladgan son nolga teng bo’lsa, istisno hosil qilinadi. Istisno hosil qilinganda konsol ekraniga chiqarilishi kerak bo’lgan ma`lumotlar parametr sifatida beriladi. Yuqoridagi dasturda bu *Exception("**Nolga bo`lish yuzaga keldi.**")* tarzda yozilgan. Quyida istisno holati ro’y berganda konsol ekraniga chiqariladigan ma`lumotlarga misol sifatida keltirilgan:




1.22.12-rasm

Foydalanuvchi tomonidan hosil qilingan istisnoning ro’y bergandagi holati.

## Nazorat savollari

1.Pythonda xatoliklarni ushlashni tushuntiring.

2. Pythonda 2 ta sonni o’qib oling va birinchi sonni ikkinchi songa bo’ling. Bunda ikkinchi son 0 bo’lsa “Xatolik” deb aks holda natijani ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

3.Pythonda *finally* operatorini tushuntiring.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

## 24-mavzu:To’plamalar va uning metodlari

**Mavzu rejasi:**

1.To’plam tushunchasi.

2.To’plam ustida amallar.

3.Metodlar

To’plamlar elementlar majmuini ifodalashning yana bir ko’rinishi hisoblanadi. To’plamlarni aniqlash uchun figurali qavs (*‘{‘, ‘}’*) dan foydalanilib, elementlar unda ketma-ket sanaladi:

```
talabalar = {"Bobur", "Zafar", "Alisher"}
print(talabalar)  # {'Bobur', 'Zafar', 'Alisher'}
```

2.4.1-rasm

To’plamni tashkil qiluvchi elementlar qiymatlari unikal bo’lishi kerak, agar elementlar qiymatlari ayni bir xil bo’lsa, ya’ni bir xil element takrorlansa, u holda barcha takrorlanuvchi qiymatlar bitta deb hisoblanadi:

```
son = {"1", "1", "2","2", "2"}
print(son) # {'2', '1'}
```

2.4.2-rasm

Bu yerda to’plam elementlari ikkita “1”  va uchta “2” qiymatlar orqali hosil qilingan. Lekin ekranga to’plam elementlari chop qilinganda to’plam faqatgina ikkita elementdan tashkil topganligini ko’rish mumkin. To’plamni yaratish uchun *set*() funksiyasidan ham foydalanish mumkin.

Ushbu funksiyadan foydalanib to’plam yaratilganda parametriga qiymat sifatida ro’yxat yoki kortej ham berilishi mumkin:

```
tubSonlar = [2,3,5,7,11]
tubSonlarTuplami = set(tubSonlar)
print(tubSonlarTuplami) # {2, 3, 5, 7, 11}
```

2.4.3-rasm

Ayniqsa set() funksiyasi bo’sh to’plam hosil qilish uchun juda qulay hisobladi:

```
son = set()
print(son) # set()
```

2.4.4-rasm

To’plam uzunligi (to’plam elementlari soni) ni toppish uchun *len*() funksiyasidan foydalaniladi:

```
son = {3,4,5,6}
print(len(son)) # 4
```

2.4.5-rasm

**To’plamga element qo’shish**. To’plamga element qo’shish uchun *add*() metodidan foydalaniladi:

```
son = set()
son.add(2)
son.add(4)
print(son) # {2, 4}
```

2.4.6-rasm

**To’plamdan elementni o’chirish**. To’plamdan elementni o’chirish uchun *remove*() metodi qo’llanilib, uning argumentiga o’chirilishi kerak bo’lgan element beriladi. Agar o’chirilishi kerak bo’lgan element to’plamda mavjud bo’lmasa, u holda *KeyError* istisno xatoligi ro’y beradi. Shuning uchun to’plamdan elementni o’chirishdan oldin *in* operatori orqali shu elementning lug’atda mavjud yoki yo’qligini tekshirish tavsiya qilinadi:

```
ismlar = {"Anvar", "Abbos", "Abror"}
ism = " Abror"
if ism in ismlar:
    ismlar.remove(ism)
print(ismlar)  # {'Anvar', 'Abbos'}
```

2.4.7-rasm

To’plamdan elementni o’chirishning boshqa usuli ham mavjud bo’lib, *discard*() metodi orqali amalga oshiriladi. Usbu usulda element to’plamdan o’chirilganda, agar o’chirilayotgan element to’plamda mavjud bo’lmasa ham istisno xatoligi ro’y bermaydi:

```
ismlar = {"Anvar", "Abbos", "Abror"}
ism = "Abbos"
ismlar.discard(ism)
print(ismlar)  # {'Anvar', 'Abror'}
```

2.4.8-rasm

To’plamning barcha elementlarini birdaniga o’chirish uchun ya`ni to’plamni tozalash uchun *clear*() metodidan foydalaniladi:

```
ismlar = {"Anvar", "Abbos", "Abror"}
ismlar.clear()
print(ismlar)  # set()
```

2.4.9-rasm

To’plam elementlariga *for* operatori orqali murojaatni (perebor) amalga oshirish mumkin:

```
ismlar = {"Anvar", "Abbos", "Abror"}
for ism in ismlar:
    print(ism)
```

2.4.10-rasm

bu erda to’plamni har bir elementi *ism* o’zgaruvchisiga ketma-ket yuklanadi va keyingi hisoblashlarda ishlatilishi mumkin.

**To’plamlar ustuda amallar**.

To’plamlar ustuda turli xil amallarni bajarish mumkin bo’lib, ular metod va funksiyalar orqali amalga oshiriladi. Quyida ulardan eng ko’p qo’llaniladiganlarini qarab chiqamiz:

*copy*() metodi biror bir to’plamdan nusxa olish uchun ishlatiladi, masalan:

```
ismlar = {"Anvar", "Abbos", "Abror"}
ismlar2 = ismlar.copy()
print(ismlar)  # {'Abbos', 'Anvar', 'Abror'}
print(ismlar2)  # {'Abbos', 'Anvar', 'Abror'}
```

*2.4.11-rasm*

*union*() metodi ikkita to’plamni birlashtiradi va qiymat sifatida yangi to’plamni qaytaradi:

```
famil = {"Axmedov", "Niyazov"}
ism = {"Sardor", "Tohir"}
FIO = famil.union(ism)
print(FIO)  # {'Axmedov', 'Tohir', 'Sardor', 'Niyazov'}
```

2.4.12-rasm

*intersection*() metodi ikkita to’plamni kesishmasini olish uchun ishlatib, qiymat sifatida yangi to’plam qaytaradi. Ya`ni ikkita to’plam uchun umumiy bo’lgan elementlarni olish uchun *intersection()* metodi qo’llaniladi:

```
famil = {"Axmad", "Sardor", "Ikrom"}
ism = {"Sardor", "Tohir","Ikrom"}
ism2 = famil.intersection(ism)
print(ism2)  # {'Sardor', 'Ikrom'}
```

2.4.13-rasm

*intersection()* metodi o’rniga unga ekvivalent bo’lgan & (mantiqiy ko’paytirish) amalini ham qo’llash mumkin:

```
famil = {"Axmad", "Sardor", "Ikrom"}
ism = {"Sardor", "Tohir","Ikrom"}
ism2 = famil & ism
print(ism2)  # {'Sardor', 'Ikrom'}
```

2.4.14-rasm

*difference*() metodi to’plamlar ayirmasini topish uchun qo’llanilib, qiymat sifatida yangi to’plam qaytaradi. Ya`ni birinchi to’plamda mavjud va ikkinchi to’plamda yo’q bo’lgan elementlarni topishda ishlatish mumkin. *difference*() metodiga ekvivalent amal bu ‘-‘ amalidir:

```
famil = {"Axmad", "Sardor", "Ikrom"}
ism = {"Sardor", "Tohir", "Ikrom"}
ism2 = famil.difference(ism)
ism3 = famil - ism
print(ism2)  # {'Axmad'}
print(ism3)  # {'Axmad'}
```

2.4.15-rasm

*issubset*() metodi qaralayotgan to’plam boshqa to’plam (argumentida berilgan) ning qism to’plami yoki yo’qligini tekshirish uchun ishlatiladi:

```
famil = {"Axmad", "Sardor", "Ikrom"}
ism = {"Sardor", "Ikrom"}
print(ism.issubset(famil))  # True
print(famil.issubset(ism))  # False
```

2.4.16-rasm

*issuperset*() metodi qaralayotgan to’plam boshqa to’plamni (argumentida berilgan) o’z ichiga olishi yoki olmasligini tekshirish uchun ishlatiladi:

```
famil = {"Axmad", "Sardor", "Ikrom"}
ism = {"Sardor", "Ikrom"}
print(ism.issuperset(famil))  # False
print(famil.issuperset(ism))  # True
```

2.4.17-rasm

***frozenset.*** *frozenset* - o’zgartirib  bo’lmaydigan to’plamlarni yaratish uchun ishlatiladi. Ushbu turdagi to’plamga yangi element qo’shish, o’chirish yoki element qiymatini o’zgartirishga ruxsat berilmaydi. *frozenset* turidagi to’plam odatda ro’yxat, kortej yoki oddiy to’plam (*set*) orqali hosil qilinadi:

```
famil = {"Axmad", "Sardor", "Ikrom"}
fam = frozenset(famil)
print(fam)  # frozenset({'Sardor', 'Ikrom', 'Axmad'})
```

2.4.18-rasm

*frozenset* turidagi to’plamlar ustuda quyidagi amallarni bajarish mumkin:

*len*(s) – *s* to’plam uzunligi (elementlari soni)ni qaytaradi; *x in s* – *True* qiymat qaytaradi, agar *x* element s to’plamning tarkibida mavjud bo’lsa; *x not in s* – *True* qiymat qaytaradi, agar *x* element s to’plamning tarkibida mavjud bo’lmasa;

*s.issubset*(*t*) – *True* qiymat qaytaradi, agar *t* to’plam *s* to’plamni o’z ichiga olsa;

*s.issuperset*(*t*) – *True* qiymat qaytaradi, agar s to’plam t to’plamni o’z ichiga olsa;

*s.union*(*t*) – *s* va *t* to’plamlarning birlashmasidan tashkil topgan yangi to’plamni qaytaradi;

*s.intersection*(*t*) – *s* va *t* to’plamlarning kesishmasidan tashkil topgan yangi to’plamni qaytaradi;

*s.difference*(*t*) – *s* to’plamdan *t* to’plamni ayirishdan hosil bo’lgan yangi to’plamni qaytaradi;

*s.copy()* – *s* to’plamning nusxasini qaytaradi.

**Nazorat savollari**

1.Pythonda To’plamlardan qanday foydalaniladi? Misollar bilan tushuntirib bering.
2.Sizga A,B va C to’plamlar berilgan. A va B to’plamlarning kesishmasiga B va C ning ayirmasini birlashtiring.
3. Sizga A va B to’plamlar berilgan. Agar A to’plam B to’plamning qism to’plami bo’lsa A dan B ning ayirmasini, aks holda ularning kesishmasini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**25-mavzu: Fayllar va kataloglar bilan ishlash**

**Mavzu rejasi:**

1.Faylni ochish.

2.Fayllar bilan ishlash usullari.

3.OS moduli yordamida fayllarga kirish.

4.StringI() va BytesI() sinflari.

5.Fayllar va kataloglar uchun ruxsatlar

Python dasturlash tilida turli xil fayl turlari bilan ishlash imkoniyati mavjud bo’lib, shartli ravishda ularni ikki turga bo'lish mumkin: matn va binar fayllar. Matn fayllari, masalan, kengaytmasi cvs, txt, html, umuman, matn shaklida ma'lumot saqlaydigan barcha fayllarlarni o’z ichiga oladi. Binar fayllar tasvirlar, audio va video fayllar va boshqalardan iborat. Fayl turiga qarab u bilan ishlash biroz farq qilishi mumkin.

Fayllar bilan ishlaganda, quyidagi tartibdagi operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirish talab etiladi:

1. *open*() metodi yordamida faylni ochiladi;

2. *read*() metodi yordamida faylni o'qish yoki write() metodi yordamida faylga yozish amalga oshiriladi;
3. *close*() metodi faylni yopadi.

Fayllar bilan ishlash uchun avval faylni *open*() metodi yordamida ochish zarur. *open*() metodidan quyidagi ko’rinishda foydalaniladi**:**


Funksiyaning birinchi parametri faylning yo'lini ifodalaydi. Fayl yo'li absolyut bo'lishi mumkin, ya'ni disk harfidan boshlanadi, masalan, C://papkanomi/somefile.txt. Yoki nisbiy bo'lishi mumkin, masalan, papkanomi/somefile.txt - bu holda, fayl Python ishlaydigan skript joylashgan katologda hosil qilinadi. Ikkinchi argument *mode* - bu faylni ochish rejimi bo`lib, fayl bilan qanday ish bajarilishiga qarab, 4 turdagi fayllar bilan ishlash rejimidan birini qo’llash mumkin:

- *r* (*Read*) - Fayl o'qish uchun ochadi. Fayl topilmasa, *FileNotFoundError* xatolik qaytaradi;
- *w* (*Write*). Fayl yozish uchun ochadi. Agar fayl yo'q bo'lsa, u hosil bo'ladi. Bunday fayl allaqachon mavjud bo'lsa, u yangidan yaratiladi va shunga mos ravishda eski ma'lumotlar o'chiriladi.
- *a* (*Append*). Faylni qayta yozish uchun fayl ochiladi. Agar fayl yo'q bo'lsa, u hosil bo'ladi. Bunday fayl allaqachon mavjud bo'lsa, ma'lumotlar oxiridan yozish davom ettiriladi.
- *b* (*Binary*). Binar fayllar bilan ishlash uchun foydalaniladi. *w* va r kabi rejimlar kombinatsiyasi bilan birgalikda ishlatiladi.

Fayl bilan ishlashni tugatgandan so'ng uni *close()* metodi bilan yopish kerak bo’ladi. Ushbu metod fayl bilan bog'liq barcha resurslarni bo`shatadi.

Misol uchun, "salom.txt" matnli faylini yozish uchun ochamiz:

```
meningfaylim = open("salom.txt", "w")
meningfaylim.close()
```

Faylni ochishda yoki u bilan ishlashda turli xil istisno holatlarga duch kelish mumkin, masalan, unga ruxsat yo'q bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda, dastur ishlash jarayonida xatolik yuz beradi va dastur bajarilishi *close()* metodi chaqirilishiga yetib bormaydi va shunga muvofiq fayl yopilmaydi. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun istisnolardan foydalaniladi:

```
try:
    somefile = open("salom.txt", "w")
try:
    somefile.write("Salom olam")
except Exception as e:
    print(e)
finally:
    somefile.close()
except Exception as ex:
    print(ex)
```

Bu yerda, fayl bilan bajariladigan barcha amallar ketma-ketligi *try* blokida yoziladi. Agar biror bir istisno to'satdan kelib chiqsa, u holda *finally* blokida fayl blokirovka qilinadi.

Fayllar bilan ishlashning yanada qulayroq *with* konstruktsiyasi mavjud:

```
with open(file, mode) as file_obj:
    #buyruqlar
```

Bu konstruktsiya  ochiq fayl uchun *file_obj* o’zgaruvchi aniqlanadi va buyruqlar ketma-ketligi bajariladi. Ular bajarilgandan so'ng, fayl avtomatik ravishda yopiladi. Blokda amallar ketma-ketligini bajarishda istisnolar yuzaga kelsa ham, fayl avtomatik ravishda yopiladi.

*with* konstruktsiyasi yordamida, yuqoridagi misolni quyidagicha qayta yozish mumkin:

```
with open("salom.txt", "w") as somefile:
    somefile.write("Salom Python")
```

**Nazorat savollari**

1.Pythonda fayllar bilan ishlash uchun qanday metodlardan foydalaniladi?
2.Pythonda qanday fayllar bilan ishlash rejimlarini bilasiz? Ularning vazifalarini aytib bering.
3. Madhiya.txt fayliga O’zbekiston respublikasi Madhiyasining 1-bandini yozing.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)
2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

26-mavzu: **Kataloglar bilan ishlash funksiyalari**

**Mavzu rejasi:**

1.Fayllarni manipulyatsiya qilish funksiyalari.

2.Ob'ektlarni faylga saqlash

3.Kataloglar bilan ishlash funktsiyalari.

4.Scandir() funktsiyasi.

5.Fayl operatsiyalari tomonidan chiqarilgan istisnolar

Matn faylini yozish uchun ochishda *w* (qayta yozish) yoki *a* (yozuv qo’shish) rejimini qo'llaniladi. So'ngra, faylga yozish uchun *write(str)* metodidan foydalanilib, *str* parametriga yozilishi kerak bo’lgan satr uzatiladi. Shuni eslatib o'tish joizki, bu parametr satr bo’lishi shart, shuning uchun raqamlar yoki boshqa turdagi ma`lumotlarni yozish zarur bo’lsa, dastlab ularni satr turiga keltirish talab qilinadi.

"salom.txt" fayliga ba'zi ma'lumotlarni yozamiz:

```
with open("salom.txt", "w") as fayl:
    fayl.write("salom olam")
```

Joriy Python skriptining joylashgan papkasini ochsak, u yerda salom.txt faylini ko'rish mumkin. Ushbu fayl har qanday matn muharriridan ochilishi mumkin va agar kerak bo'lsa o'zgartirilishi ham mumkin. Keling, ushbu faylga yana bitta qator qo'shamiz:

```
with open("salom.txt", "a") as fayl:
    fayl.write("\nHayr, olam")
```

Agar satrni yangi qatorga yozish zarur bo’lsa, u holda, yuqoridagi kabi, yozilayotgan satr oldidan "\n"(yangi satrga o’tish belgisi) qo’yish yetarli bo’ladi. Yukunida salom.txt faylida quyidagi matn hosil bo’ladi:

*salom olam*

*Hayr, olam*

Faylga yozishning yana bir usuli - ma'lumotlarni konsolga chiqarish uchun ishlatiladigan standart *print()* metodan foydalanish orqali amalga oshiriladi:

```
with open("salom.txt", "a") as salom_fayl:
    print("Salom, olam", file=salom_fayl)
```

*print* metodi yordamida  ma'lumotlarni faylga chiqarish uchun faylning nomi *file* parametri orqali beriladi va birinchi parametr faylga yoziladigan ma‟lumotni ifodalaydi.

Fayldan o'qish. Fayldan o'qish uchun r (Read) rejimida ochiladi va uning mazmunini turli usullar bilan o'qish mumkin:

- *readline()* - fayldan bir qator o'qiydi;
- *read()* - faylning butun tarkibini bir qatorga o'qiydi;
- *readlines()* - faylning barcha satrlarini ro'yxatga oladi.

Masalan, biz yuqorida yozilgan fayllarni satrlar bo'yicha ko'rib chiqamiz:

```
with open("salom.txt", "r") as fayl:
  for satr in fayl:
        print(satr, end="")
```

Biz, albatta, har bir qatorni o'qish uchun *readline()* metidini ishlatmasak ham, har bir yangi satrni olish uchun ushbu metod avtomatik ravishda chaqiriladi. Shuning uchun ham, *readline()* metodini siklda chaqirishdan ma‟no yo’q va satrlar yangi satr "\n" belgisi bilan ajratilganligi uchun, yangi satrga chop qilish zaruryati qolmaydi va *end=""* qiymati *print* metodining ikkinchi parametri sifatida uzatiladi.

Endi satrlarni alohida o'qish uchun *readline()* metodini to’g’iridan-to’g’ri chaqiramiz:

```
with open("salom.txt", "r") as fayl:
    str1 = fayl.readline()
    print(str1, end="")
    str2 = fayl.readline()
    print(str2)
```

Konsol ekraniga quyidagi natijalar chiqariladi:

salom olam hayr, olam *readline()* metodini alohida qatordagi satrlarni o’qish uchun *while* siklida ham foydalanish mumkin:

```
with open("salom.txt", "r") as fayl:
    satr = fayl.readline()
    while satr:
        print(satr, end="")
        satr = fayl.readline()
```

Fayl kichik bo'lsa, *read*() metodidan foydalanib, uni birdan o'qishingiz mumkin:

```
with open("salom.txt", "r") as fayl:
    mazmun = fayl.read()
    print(mazmun)
```

Hamda, *readlines()* metodi yordamida fayldagi barcha satrlar ro’yxatga o’qib olinadi, ya`ni elementlari fayldagi satrlardan tashkil topgan ro’yxat hosil qilinadi:

```
with open("salom.txt", "r") as faly:
    mazmun = fayl.readlines()
    str1 = mazmun [0]
    str2 = mazmun [1]
    print(str1, end="")
    print(str2)
```

Ba’zida fayldagi ma’lumotlar ASCIIdagi belgilardan farqlanishi mumkin. Ushbu holatda fayldan berilganlarni o`qish to’g’ri bo’lishi uchun kodlash parametrini ishlatib kodlashni aniq belgilab olishimiz mumkin:

```
faylnomi = "salom.txt"
with open(faylnomi, encoding="utf8") as file:
    matn = file.read()
```

Quyidagi dastur orqali foydalanuvchi tomonidan kiritilgan satrlar massivi dastlab faylga yozish amalga oshirilgan, so’ngra ularni fayldan konsolga qayta o`qib, chop qilish amalga oshirilgan:

```
# fayl nomi
FILENAME = "habarlar.txt"
# bo’sh ro’yxat aniqlaymiz
xabarlar = list()
 for i in range(4):
    xabar = input("Satrni kiriting " + str(i + 1) + ": ")
    xabarlar.append(xabar + "\n")

# ro’yxatni faylga yozish
with open(FILENAME, "a") as fayl:
  for xabar in xabarlars:
    fayl.write(xabar)

# xabarlarni fayldan o’qiymiz
print("Xabarlarni o’qish") \
with open(FILENAME, "r") as fayl:
  for xabar in fayl:
        print(xabar, end="")
```

Dastur ishlashining namunasi:

```
Satrni kiriting 1: salom
Satrni kiriting 2: tinchlik so'zi
Satrni kiriting 3: buyuk ish
Satrni kiriting 4: Python
Xabarlarni
o'qish Salom
tinchlik so'zi
buyuk ish
Python
```

**Nazorat savollari**

1.Pythonda matnli fayllar qanday o'qiladi? Misollar bilan tushuntirib bering.

2.read() va readline() metodlarini farqi nima?. Pythondagi dasturda misollar keltiring.

3. Madhiya.txt faylidagi ma'lumotlarni o'qib, unga 2-bandni ham qo'shadigan va Madhiya2.txt fayliga yozib qo'yadigan dastur tuzing.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО "Диалектика", 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО "Диалектика", 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**27-mavzu: SQLite asoslari**

**Mavzu rejasi:**

1.Ma'lumotlar bazasini yaratish.

2.Jadval yaratish.

3.Yozuvlarni kiritish.

4.Jadval tuzilishini o'zgartirish

SQLite - bu kichik, tezkor, mustaqil, yuqori ishonchlilik, to'liq xususiyatli, SQL ma'lumotlar bazasi mexanizmini amalga oshiradigan C tilidagi kutubxona. SQLite - dunyodagi eng ko'p ishlatiladigan ma'lumotlar bazasi mexanizmi. SQLite barcha mobil telefonlar va ko'pgina kompyuterlarga o'rnatilgan va odamlar har kuni foydalanadigan son-sanoqsiz boshqa ilovalar ichida to'plangan. Batafsil ma'lumot...

SQLite fayl formati barqaror, o‘zaro platformali va orqaga qarab mos keladi va ishlab chiquvchilar uni 2050-yilgacha saqlab qolishga va’da berishadi. SQLite ma’lumotlar bazasi fayllari odatda tizimlar o‘rtasida boy kontentni uzatish uchun konteyner sifatida ishlatiladi va ma'lumotlar uchun uzoq muddatli arxiv formati sifatida . Faol foydalanishda 1 trilliondan ortiq (1e12) SQLite ma'lumotlar bazalari mavjud.

SQLite manba kodi ommaviy domenda bo'lib, har kim xohlagan maqsadda foydalanishi mumkin.

Malumotlar bazasi yaratish:
SQLite-da sqlite3 buyrug'i yangi ma'lumotlar bazasini yaratish uchun ishlatiladi.

Avval buyruq satrini oching va yo'lni belgilang. Shundan so'ng siz "dir" buyrug'i yordamida ushbu sqlite katalogini tekshirishingiz mumkin.




Misol uchun JTP degan database yarataylik:

```
sqlite3 JTP.db
```




Malumotlar bazasi yaraltilganini ko’rishimiz uchun :

```
.databases
```




**Jadval yaratish:**

SQLite-da CREATE TABLE iborasi yangi jadval yaratish uchun ishlatiladi. Jadvalni yaratishda biz ushbu jadvalga nom beramiz va uning ustunini va har bir ustunning ma'lumotlar turlarini aniqlaymiz.

Sintaksis esa quyidagicha:

```
CREATE TABLE database_name.table_name(
   column1 datatype  PRIMARY KEY(one or more columns),
   column2 datatype,
   column3 datatype,
   .....
   columnN datatype,
);
```

Keling Talaba jadvalini yaratib ko’ramiz:




Biz yaratilgan jadvallar ro’yhatini ko’rishimiz uchun:

**.tables**




**Jadvalga yozuv kiritish:**

SQLite-da INSERT INTO iborasi jadvalga yangi ma'lumotlar qatorlarini qo'shish uchun ishlatiladi. Jadval tuzilgandan so'ng ushbu buyruq jadvalga ma'lumotlarni kiritish uchun ishlatiladi.

INSERT INTO bayonoti uchun ikkita asosiy sintaksis mavjud:

**1-sintaksis:**

```
INSERT INTO TABLE_NAME [(column1, column2, column3,...columnN)]
VALUES (value1, value2, value3,...valueN);
```

**2-sintaksis:**

```
INSERT INTO TABLE_NAME VALUES (value1,value2,value3,...valueN);
```

Talaba jadvaliga ma’lumot kiritish uchun:

```
INSERT INTO STUDENT (ID,NAME,AGE,ADDRESS,FEES)
VALUES (1, 'Ajeet', 27, 'Delhi', 20000.00);
INSERT INTO STUDENT (ID,NAME,AGE,ADDRESS,FEES)
VALUES (2, 'Akash', 25, 'Patna', 15000.00 );
INSERT INTO STUDENT (ID,NAME,AGE,ADDRESS,FEES)
VALUES (3, 'Mark', 23, 'USA', 2000.00 );
INSERT INTO STUDENT (ID,NAME,AGE,ADDRESS,FEES)
VALUES (4, 'Chandan', 25, 'Banglore', 65000.00 );
INSERT INTO STUDENT (ID,NAME,AGE,ADDRESS,FEES)
VALUES (5, 'Kunwar', 26, 'Agra', 25000.00 );
```

**Nazorat savollari**

1.SQLite haqida ma’lumot bering.

2..tables komandasi qanday vazifa bajaradi?

3. INSERT INTO qanday buyruq?.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.
3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**28-mavzu: Where va Having ko’rsatmalaridagi shartlar**

**Mavzu rejasi:**

1.Where va Having ko’rsatmalaridagi shartlar.

2.Indekslar.

3.O’rnatilgan so‘rovlar

4.Tranzaksiyalar(Bitimlar).

5.Jadval va ma'lumotlar bazasini o'chirish

SQLite WHERE bandi odatda SELECT, UPDATE va DELETE iboralari bilan bitta jadval yoki bir nechta jadvallardan ma’lumotlarni olishda shartni belgilash uchun ishlatiladi.

Agar shart bajarilsa yoki rost bo'lsa, u jadvaldan ma'lum qiymatni qaytaradi. Yozuvlarni filtrlash va faqat kerakli yozuvlarni olish uchun WHERE bandidan foydalanasiz.

WHERE bandi yozuvlarni filtrlash va faqat ma'lum ma'lumotlarni olish uchun ham ishlatiladi.

**Sintaksis**:

```
SELECT column1, column2, columnN
FROM table_name
WHERE [condition]
```

Misol uchun:

Yoshi 25 dan katta yoki unga teng bo‘lgan va to‘lovlar 10000.00 dan katta yoki teng bo‘lgan talabalarni tanlang.


SQLite HAVING bandi yakuniy natijalarda qaysi guruh natijalari paydo bo'lishini filtrlaydigan shartlarni belgilash uchun ishlatiladi. WHERE bandi tanlangan ustunlarga shartlar qo'yadi, HAVING bandi esa GROUP BY bandi tomonidan yaratilgan guruhlarga shartlar qo'yadi.

Misol: Nomlar soni 2 dan kam bo'lgan barcha yozuvlarni ko'rsatish


**Indekslar:**

1.Primary key:

SQLite asosiy kaliti oddiy maydon yoki yozuvni yagona aniqlash uchun ishlatiladigan maydonlar birikmasidir. Jadvalda faqat bitta asosiy kalit bo'lishi mumkin.

Birlamchi kalit NULL qiymat bo'lmasligi kerak.

Sintaksis:

```
CREATE TABLE table_name
(
column1 datatype [ NULL | NOT NULL ],
column2 datatype [ NULL | NOT NULL ],
.....
CONSTRAINT constraint_name PRIMARY KEY (pk_col1, pk_col2, ... pk_col_n)
);
```

2.Foreign  key:

SQLite Tashqi kaliti bir jadvaldagi qiymatlar boshqa jadvalda ham paydo bo'lishini belgilash uchun ishlatiladi. U SQLite ma'lumotlar bazasida ma'lumotlarning yaxlitligini ta'minlaydi. Yo'naltirilgan jadval ota-ona jadvali, tashqi kaliti bo'lgan jadval esa bolalar jadvali deb nomlanadi. Bolalar jadvalidagi tashqi kalit odatda ota-jadvaldagi asosiy kalitga murojaat qiladi.

Siz tashqi kalitni faqat CREATE TABLE iborasida belgilashingiz mumkin.

Sintaksis:

```
CREATE TABLE table_name
(
column1 datatype [ NULL | NOT NULL ],
column2 datatype [ NULL | NOT NULL ],
...
CONSTRAINT fk_column
FOREIGN KEY (column1, column2, ... column_n)
REFERENCES parent_table (column1, column2, ... column_n)
);
```

O’chirish:

SQLite'da DROP TABLE iborasi jadval ta'rifini va ushbu jadval bilan bog'liq bo'lgan barcha bog'liq ma'lumotlar, indekslar, triggerlar, cheklovlar va ruxsat spetsifikatsiyalarini olib tashlash uchun ishlatiladi.

Sintaksis:

```
DROP TABLE database_name.table_name;
```

**Nazorat savollari**

1.SQLite da where va havingni farqini tushuntiring.

2. Tranzaksiya  qanday vazifa bajaradi?

3. Jadval malumotlarini o’chirishni va jadval malumotlarini butunlay yo’qotadigan komandani mustaqil o’rganing.

**Adabiyotlar:**

1. Python 3. Самое необходимое / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. -2-е изд., перераб. и доп. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 608 с.: ил. -(Самое необходимое)

2. Изучаем Python, том 1, 5-е изд.: Пер. с англ. — СПб.: ООО “Диалектика”, 2019. — 832 с. : ил. — Парад, тит. англ.

3. Изучаем Python, том 2, 5-е изд. : Пер. с англ. — СПб. : ООО “Диалектика”, 2020. — 720 с. : ил. — Парал. тит. англ.

**29-mavzu: Pythondan SQLite ma'lumotlar bazalariga kirish**

**Mavzu rejasi:**

1.Ma'lumotlar bazasini yaratish va ochish.

2.So'rovlarni bajarish.

3.So'rovlar natijasi bilan ishlash.

4.Tranzaksiyalarni boshqarish.

**Bog’lash:**

Quyidagi kodga ega bo'lgan "connect.py" python faylini yarating:

```
#!/usr/bin/python

import sqlite3

conn = sqlite3.connect('javatpoint.db')

print "Opened database successfully";
```

Ushbu faylni ishlatganimizda:

```
python connect.py
```




**Jadval yaratish:**

Quyidagi kodga ega bo'lgan " createtable.py" python faylini yaratamiz:

```
#!/usr/bin/python

import sqlite3

